

821.512.133-32

M 54

Oyoqyalang bolalar

Hikoyalar to'plami

Abdukarim Mirzayev



UYGA

FORNARINI QILDI

“Hamyon” qissasi yoxud Allohga havola qilingan ajr

Hijriy 240-yil. Ramazon oyining birinchi kuni. Masjid ul-Haramning minoralaridan taralayotgan bomdod azoni avval osmon elchisi Jabroil alayhissalomning bekati bo'lgan Makka tog'lari-
dan o'tib, so'ng sahar yo'li bilan qo'shilib, ohis-
ta-ohista Ka'ba pardalariga osilib, insonlarning
quloqlaridan qalblariga kirib borardi.

Namozdagi ba'zi bir saflar borki, ular Mak-
kai mukarramani o'z ko'zlari bilan ko'rib turi-
shadi. Yana boshqa bir saflar borki, tog'lar, o'r-
monlar, dengizlar, sahrolar ortida — ularning
hammasi Makka tomon yo'naladi. Ko'zlari bilan
ko'rmasligi mumkin. Ammo qalb ko'zlari bilan
ko'rib turadilar. Insonlar namozga o'rinlari-
dan zo'rg'a qimirlashdi. Chunki ular yaqinda-
gina saharlik ne'matlaridan to'yib bahramand
bo'lishgandi. Ular sekin o'rinlaridan turib, Mak-
ka tarafga yuzlanib saflandilar. Makka atrofi-

dagi hamma uylar deyarli bo'shab qoldi. Nega? Chunki hamma bomdodni o'qish uchun yo'lga chiqqandi. Faqat 82 yoshli munkillab qolgan chol va uning ahli oilasi hali uyda edi. Azon ovozidan so'ng ular ham o'rinlaridan zo'rg'a turishdi. Boshqalardan farqli o'laroq, ular ko'p ovqat yeganlaridan emas, balki ikki kundirki tuz totmaganlari, yana hech narsa yemasdan, saharlik qilganlari, ro'za tutib olganlari uchun ochlikdan, madorsizlikdan zo'rg'a-zo'rg'a bomdod namozini o'qish uchun turishdi. Cholning beliga arqon bilan bog'lab qo'yilgan bir mato bor edi. Chol g'amgin xayol surardi. O'zi haqida o'ylamasdi. Uning qo'lga qaragan oilasi haqida o'ylardi. Chunki ular ko'pchilik edi. Oilasida undan boshqa erkak kishi yo'q edi. Qaramog'ida ayoli, to'rt nafar qizi, ikki nafar singlisi va qaynonasi bor edi.

Chol bomdod namozini o'qib bo'lgach, Luboba deb ayolini chaqirdi. Luboba keldi. Uning egniga juldur mato tashlangan edi — kiyimga ham o'xshamasdi. Shunchaki bir latta edi, xolos. Chol egnidagi yangiroq bo'lgan kiyimini yechib, xotiniga berdi. Xotini va butun oilasi navbatma-navbat o'sha cholning ustidagi kiyimni kiyib namoz o'qirdi. Chunki qolganlari-ning ust-boshi badanlarini to'la berkitmasdi. Ya'ni namoz shartlariga to'g'ri kelmasdi...

Chol bunaqa holatlarga o'rganib ketgandi — ochlikka, muhtojlikka, kambag'allikka chidayverardi. Alloh bu bandasiga metindek iroda, bus-butun iymon bergandi. Undan boshqa inson bo'lganida, atrofdagi insonlarning isrofgarchiliklarini ko'rib, allaqachon Allohga isyon qilgan bo'lardi. Chol esa hayoti davomida biror marotaba Allohga boshqalarni ro'kach qilmadi. Nega u bandalaring to'q va isrofgar, nega men ochman deya xitob qilmadi. U Alloh taolo bandalariga rizq-nasibani taqsimlar ekan, kimga ko'p qilib bersa ham sinov, boshqa biriga oz qilib bersa ham sinov ekaniga amin edi. Shu bois mo'ysafid hech kimga nolimasdi. Allohga shikoyat qilmasdi. Faqat uning qo'liga qarab qolganlar bor-ku. Ularni o'ylab xafa bo'lardi.

O'sha kuni tong yorishgach, xotini Luboba, ko'chaga chiqib biror yegulik topib kelishni so'radi. Chunki ahvol so'nggi nuqtasiga yetib kelgandi. Chol uyga biror narsa topib kelarman degan ilinj bilan ko'chaga chiqdi. Madorsiz, kuch yo'q, yosh ham 82 da. Asta-sekin Masjid ul-Haramga qarab yo'l oldi. Kun juda issiqligidan ko'chalar bo'm-bo'sh edi. Odamlar uylariga kirib ketishgandi.

Abu G'iyos — bu cholning ismi — Makka-ning tor ko'chalari bo'ylab uzoq yurdi, ammo hech kimga duch kelmadi. Quyosh esa qizdir-

gandan qizdirardi. Abu G'iyos ochqagandan ochqayverardi. Jazirama issiqdan chol tezda holsizlanib, bir daraxt tagiga cho'kkalab qoldi. Keyin ko'zlari tindi. Qurib-qaqshagan tana o'ziga bo'ysunishni istamasdi. Keyin Abu G'iyos ko'zlarini yumgancha Allohga yolvorib duo qildi. Duo qilar ekan, iztirob sabab ko'zlaridan chiqqan yosh soqollariga yetib bormadi — yuziga singib ketdi. Bu tana shu qadar qaqrangani. Chol duo qilib: "Yo Alloh! Menga o'lim xayrli bo'lsa, hali iymon o'zimdaligida jonimni ol", — deya yolvordi. Tuproqni g'ijimlab, o'rnidan turishga harakat qilarkan, barmoqlari bir narsaga tegdi. Darrov sergak tortdi. Qo'li tekkan joyga qaradi — bir ilon qumga ko'milib olgandek ko'rindi ko'ziga. Abu G'iyos hozirgina o'lim so'rab duo qildi-ku. O'shanga bu ishora bo'lsa kerak deb o'yladi. Ichida duoyim ijobat bo'ldi deb o'yladi. Kalimayi shahodatni keltirib, boya qo'li tekkan joyga takror barmoqlarini cho'zdi. Bu safar boyagi qo'li tekkan narsa qimir-lamayotganini, o'ylagani kabi ilon emasligini tushundi. Qarasa, ilon emas. Keyin qumning qolgan qismini ochib qaradi. U teridan tikilgan, belga kamar qilib bog'lanadigan kattagina hamyon edi. Uni sekin qo'llariga oldi — ancha og'ir edi — tangalarning jiringidan uning ichi-

Bizga harom bo'lgan
bir dinorni nafsimizga
man qildik. Alloh taolo
buning evaziga halol
bo'lgan ming dinor
berdi.

da kattagina boylik borligini taxmin qildi. Ochib qarasa, rostdan ham tillaga to'la ekan.

Ochlik va madorsizlikdan o'lim haqida o'ylab o'tirgan keksa odamning tomirlariga kutilmaganda birdan qon yugurdi. Xira ko'zlari katta-katta ochilib, yaxshiroq ko'ra boshladi. Qo'llariga, oyoqlariga mador kirib dadillashdi. Hamyonni olib uyi tomon yurarkan, uyidagilarga bir dunyo sovg'a-salomlar olish haqida o'yladi. Kiyim-kechak, oziq-ovqat, hatto ayollari orzu qilmagan narsalarni ham olib berishni diliga tugdi. To'yib mazali taomlardan iste'mol qilishlari, yangi kiyimlar sotib olishlari mumkinligini o'ylab, yurib emas, uchib ketayotgandi boyagi madorsiz odam.

Shu payt iymoni uyg'onib, unga dashnom bera boshladi: "Ey mo'min, sen bu hamyonni topib olding. Uni qidirib yurgan sohibi bo'lishi mumkin. Topib olingan har qanday narsani bir yil davomida o'zingda saqlashing, ya'ni sohibini kutishing joiz".

Abu G'iyos faqih odam edi. Topib olingan narsaning ajri haqida mukammal bilardi. Orqasiga qaytib, topib olgan joyimga yana ko'mib qo'ysammikin deb o'yladi. Keyin unday qilolmasligini tushundi. Chunki uni boshqa bir odam topib olib, egasiga qaytarmay yeb yubor-

sa, uning gunohiga sherik bo'lib qolishi mumkin.

Keyin nafs sado berdi: "Bu hamyonni ol-da, o'zingdan va oilangdan o'limni uzoqlashtir". Yana bir-ikki kun och qolsa, hamma ochlikdan o'lib ketishi mumkin. Tushunyapsizmi? "Bir yil hamyon sohibini kutib o'tirasanmi? Bir yil-da kim bor, kim yo'q? Ochlikdan oila a'zolari-ngning tinka-madori qurib bo'ldi. Ahvolingni qara. Hamyonning ichida juda katta boylik bor. Hatto mana shu tangalardan bittagina olgan taqdiringda ham oilang omon qoladi. Hamyon sohibiga qolganini qaytarsang ham xursand bo'laveradi", — deyapti nafs. Iymoni esa: "Ey Abu G'iyos, omonatga xiyonat qilma, Allohga osiy bo'lma", — deb oyoq tirab turibdi. Mana shunday xitob qilyapti unga.

Abu G'iyos yana Allohga duo qildi. Ofiyat so'radi. Osiy qilib qo'ymasligini o'tindi. Hamyonni uyiga olib borib, tezda yashirib qo'yishni va egasi topilmagunicha qo'lini ham tekizmaslikni niyat qildi. Uyiga bordi. Uyiga kir-gach, ayoli Luboba undan: "Nima olib keldin-giz?" — deb so'radi. Abu G'iyos: "Hech narsa", — dedi-yu xonasiga kirdi. Erining avzoyini ko'r-gan xotin orqasidan kirdi va dedi:

— Nega yashiryapsiz? Nima u?

Butun umr halol yashagan odam yolg'onni eplab gapira olmaydi. Qo'ynidagi oltinni chiqarib, bo'lgan voqeani aytib berdi. Xotini: "Hech yo'q, bir tanga olsak bo'ladi-ku, — dedi. — Ahvolimiz ayon-ku! Hamyonning sohibi topilganda, unga berganimizda ham suyunchi beradi-ku! O'shani hozir ishlatsak bo'lmaydimi?"

— Yo'q. Allohga qasamki, agar bu tangalardan birortasiga qo'lingni tekizsang yoki uning xabarini biror kimsaga aytsang, taloqsan.

— Ahvolimiz juda yomon. "O'lim tahlikasi kelib turganda harom qilingan go'shtni ham yeyish mumkin", — deyilgan-ku! Shundan ozingina ishlatsak bo'lmaydimi?

— Yo'q.

Keyin Abu G'iyos hamyon sohibini izlash uchun chiqib ketdi. Shoyadki, hamyon sohibi topilib, uni egasiga qaytarsa, balki, bir-ikki tanga hadya qilar va bu ochlikdan qutulishar?

Bu yog'ini hikoyani bizga yozib qoldirgan odam tilidan eshitamiz. Uning ismi imom Tabariy. Imom Tabariy Makkada o'sha paytda ta'lim olayotgan yosh tolibi ilm edi. "Bir kuni, — deydi u, — haramda xurosonlik bir kishi: «Ey musulmonlar! Ey ahli mo'min! Kim hamyon topib oldi? Orangizda hamyon topib olganlar bo'lsa, qaytarsin! Uning ichida ming dinor bor! Kim uni topib olsa va menga qaytarsa,

Alloh nasibasini mo'l qilib bersin", — deya jar solayotgandi. Shunda uning oldiga bir chol — bizning qahramonimiz — borib: "Ey xurosonlik, bizning o'lkamiz — nihoyatda faqir joy. Chun-ki hech narsa o'smaydi. Mavsumlarning hech bir himmati yo'q. Insonlar ziyoratga kelganlar bilan birga tijorat qilib kun kechirishadi. Ahvol juda og'ir. Shoyadki, sizning hamyoningiz bir mo'min, Allohdan qo'rqadigan bir musulmonning, halol odamning, yeganlariga diqqat qiladigan bir odamning qo'lga tushgan bo'lsa, biror-bir mukofot e'lon qilmaysizmi? Mukofot e'lon qilsangiz, shoyad, u qaytarib bersa", — dedi. Shunda xurosonlik kishi: "Yo'q, istamayman. Qancha xohlar ekan o'sha topib olgan odam?" — dedi. Abu G'iyos: "O'ndan birini", — dedi. Xurosonlik "Yo'q! Uning savobini Allohga havola qilaman", — dedi. Keyin hamma tarqaldi».

Imom Tabariy voqeani kuzatib turar ekan, "Bu chol, hoynahoy, hamyonni topib olgan bo'lsa kerak", — deb o'yladi. Keyin cholning orqasidan yo'lga tushdi. Chol Makkaning Masfala degan mahallasida bir uyga kirib ketdi. Tabariy uning orqasidan kuzatib bordi va poylab turdi. Chol ichkariga kirib: "Ey Luboba!" — dedi. Ayoli: "Labbay", — deb chiqdi. Chol aytdiki:

— Men hamyonning sohibini topdim. Ammo u hech narsani va'da qilmayapti. "Uning savobini Allohga havola qilaman", — deyapti. Hamyonni egasiga qaytarib bermasak bo'lmaydi.

— Ey Abu G'iyos, uyda men, onam, sizning to'rt nafar qizingiz, ikki nafar singlingiz — hammasi bo'lib to'qqiz jonmiz. Siz o'g'rilik qilmadingiz, zo'ravonlik qilmadingiz. Alloh taolo qo'lingizga bu hamyonni berib qo'ydi. Alloh taoloning sizga bergan ne'matini qaytarmang. O'ylab ko'ring. Alloh taolo mana bu ayollarning ahvoli uchun qiyomatda sizdan hisob so'raydi. Qo'lingizda bo'lib yedirmayapsiz, — dedi xotini.

Tabariy: "Men cholning yuziga qaradim, — deydi. — Uning yuzida g'amning shaklini ko'rdim. Chol ayni paytda uning qo'liga qarab turgan och va g'arib ojizalar haqida o'ylardi. Keyin uning ko'zlaridan yuzlariga, oppoq soqollariga yosh oqa boshladi. Undagi bu o'zgarishni ko'rib, xotini yana bosimni oshirdi. Cholning ko'ngli bo'shab, «Hamyondan bir-ikki dinor olsam bo'lar», — deb o'yladi. Ammo ellik yil qilgan sabri esiga tushib ketdi. "Shuncha qilgan toqatimni bir kunda yo'qqa chiqarmayman", — deb o'yladi ichida. "Ammo oilam-chi?" — dedi. Ichida jang ketdi. Keyin: "Ularga Alloh bor", — dedi. "Alloh taolo ularga mendan ko'ra mehribonroq

va shafqatliroq", — deb o'yladi. Qanoat hosil qildi bunga. Zotan, qanoatli edi. Lekin ayolining biroz bosimidan qalbi o'ynagandek bo'ldi.

Azon o'qilib, iftorlik payti bo'ldi. Abu G'iyos va oilasi dasturxonga bir necha bo'lak qotgan non va xurmo qo'yib og'iz ochishdi. Abu G'iyos atrofidagi insonlarning uylaridan kelib turgan turli xil mazali taom islarini hidlab, xayolga oldi.

Ro'zayi ramazon insonlarning ochlikdan qiynalib azob chekishlari yoki turli xil taomlardan bo'kib yeyishlari uchun emas. Alloh taolo ixtiyoriy ochlikni farz qildiki, majburiy ochlikdagi insonlarning ahvolini insonlar his qilishlari uchun. Ibrohim harbiy degan bir kishi o'tgan ekan. Har kuni yeydigan bir zog'ora noni bo'larkan. U kishi har kunlik nonidan bir burdasini olib qo'yar va juma kuni o'shalarni yerkan. Juma kuni yeydigan butun nonini esa bir muhtojga ehson qilarkan. Abu G'iyos mana shularni xayol qildi va rizqni beruvchi ham, oluvchi ham Alloh ekanligini esladi va Allohga hamdlar aytdi».

Tabariy Makkada hamyon qidirib yurgan xurosonlik kishini yana ko'rdi. U yana baqirib hamyonini yo'qotganini va topib olgan kishi hamyonini qaytarib bersa, uning ajrini Allohga havola qilishini aytardi. Chol yana uning yoniga

keldi va yana avval aytgan so'zlarini takrorladi. Ayttdiki:

— Sizga kecha ham aytgandim, bizning o'lkamiz faqir. Topib olgan odamga yuz dinor va'da qiling, shoyad, insofli chiqib qolib hamyoningizni qaytarib bersa. Lekin negadir bunga ko'nmayapsiz. Balki, unga yuz dinormas, o'n dinor berarsiz?

Umid qilyapti-da bir narsa bersa, halol bo'lsa deb. Uyimdagilarga bir narsa olib borib yedirsam deyapti. Xurosonlik yana ko'nmadi.

Keyin tarqalishdi. Uchinchi kuni yana shu holat takrorlandi. Abu G'iyos xurosonlikning oldiga keldi va dedi:

— Ey xurosonlik! Senga avval yuz dinor dedim, yo'q deding, o'n dinor dedim, yo'q deding, hech bo'lmasa, bir dinor ber. Balki, o'sha bir dinorga hamyoningni topib olgan odam mesh sotib olar, bu yerdagi ziyoratga kelgan odamlarga suv berar, qolgan yarmiga bir sog'in echki sotib olib oilasini boqar.

Xurosonlik: "Yo'q! Men uning savobini Allohga havola qildim", — dedi. Chol qarasa, xurosonlik bir narsa beradigan emas. Uning hamyonini qaytarishdan o'zga chora qolmadi. Mukofotdan umidi uzilib, oilasi haqida o'ylar ekan, ko'ngli o'ksidi. Keyin xurosonlikka: "Men hamyoningni topib oldim, uyga yur, be-

raman", — dedi. Bu voqealarni kuzatib turgan Tabariy ham ularning orqasidan ergashdi.

Abu G'iyos hamyonni chiqarib egasining oldiga qo'ydi. Xurosonlik kishi sallasini olib, yerga qo'ydi va hamyondan oltinlarni chiqarib bitta-bittalab sanashni boshladi. Umrida birinchi marotaba buncha oltinni ko'rib turgan cholning qizlari va ayoli eshik tirqishlaridan umid bilan poylab turishardi. Qaytarib yana hamyoniga joyladi. Uni yelkasiga qo'ydi. Ustidan boyagi matoni qo'ydi. Rahmat ham, xayrxo'sh ham demasdan shartta burilib chiqib ketdi.

Abu G'iyosning ayoli Luboba bunga chidolmasdan o'rnidan turib otildi. Shu otilganda holsizlikdan bir-ikki qadam qo'yib, o'sha yerda hushidan ketdi. Qattiq qayg'urganidan qizlari ham zorlanib yerga yiqilishdi. Oradan ozgina vaqt o'tganidan keyin eshik yana taqilladi.

Abu G'iyos eshikni ochib qarasa, boyagi hamyonning egasi turibdi. Odatda, bunday holatdan keyin bir odam: "Ey, sen qanaqa odam-san?!" — deydimi? Deydi. Lekin Abu G'iyos bunday demadi.

— Marhamat, tinchlikmi? — dedi. — Nega qaytib keldingiz? Biron narsani unutdingizmi?

— Ey Abu G'iyos, mening otam vafot etdi. U kishi badavlat inson edi, menga uch ming

dinor va uy-joy qoldirdi. Vafotidan avval vasiyat qilgan ediki: “Qimmatbaho egarimni sotib hajga bor. Senga berayotganim uch mingdan ming dinorini eng haqli bo’lgan kishiga hadya qil”.

Shunday deb qo’lidagi hamyonni cholgaga tutqazdi. “Men Xurosondan Makkagacha yo’l bosib sendan ko’ra bu oltinlarga munosib mo’minni ko’rmadim”, — dedi. Keyin ketdi.

Voqealarni kuzatib turgan Tabariy xurosonlikning ortidan ergashib ketayotganida Abu G’iyos orqalaridan chopib borib, Tabariyni yoniga chaqirdi. “Siz meni kuzatib yurgandingiz. Bir-ikki kun oldin kelib poylaganingizni ham ko’rgandim. Hamyonni topib olganimni payqaganingizdan ham xabarim bor”, — dedi.

Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga bir hadya kelganida hazrati Umarga uni olishni aytadilar. Hazrati Umar: “Yo Rasululloh, men bunga muhtoj emasman”, — deydi. Shunda Muhammad sollallohu alayhi va sallam: “So’ramasangizlar ham Alloh sizga biror narsani hadya qilib bersa, uni qaytarmang”, — degan ekanlar.

Abu G’iyos ushbu voqeani ko’rib, kuzatib turgan imom Tabariyni ham, qizlari, ayoli va qaynonasini ham yoniga chaqirdi, ular davra bo’lib o’tirishdi. “Etaklaringizni tutinglar”, —

dedi Abu G'iyos. U qizlarning kiyimi bir ahvol-da-ku, etak bormidi? Keyin qo'llarini tutishdi. Keyin bitta-bitta qo'yib hammaga teng taqsimladi. "Shunda menga ham yuz dinor nasib etdi", — deydi Tabariy.

Har birlariga yuz dinordan tegdi. Hamyondagi oltinlar taqsimlab bo'linganida vaqt shom bo'lib qolgandi. Shom namozidan keyin Abu G'iyosning uyida to'kin dasturxon, noz-ne'matlar, kenglik ochildi... U kishi xotini-ga xitob qildi shu payt:

— Alloh taolo sabr qilganlarning mukofoti-ni hech qachon zoye qilmaydi. Alloh mehribon-larning mehribonidir. Bizga harom bo'lgan bir dinorni ham nafsimizga man qildik. Qo'limizda shunchasi turib nafsimizga man qildik. Alloh taolo buning evaziga halol bo'lgan ming dinor berdi, — dedi va ko'chaga otildi.

Shunda ayoli aytdiki:

— Bir luqma ham yemadingiz-ku. Nega ko'chaga chiqib ketyapsiz?

— Men bir ko'chalarni qaray, balki, ovqati topolmay och, sarson yurganlar bordir. Biror-tasini topib kelaman. Birga yeymiz, — dedi.

Shayx Muhammad Abu Ja'far at-Tabariy aytadiki: "Abu G'iyos bergan o'sha yuz dinor-ning menga juda ko'p foydasi tegdi. Bu pul bi-lan qorin g'amini o'vlamasdan ilm oldim, ilm

tarqatdim. So'ng bu voqealardan o'n olti yil o'tib yana Makkaga qaytdim. Abu G'iyos vafot etib ketgan ekan. Qizlari nihoyatda yuqori darajalarga ko'tarilishibdi, yuqori martabalarga erishishibdi. Oilali bo'lishibdi, farzandli bo'lishibdi. Men ularning hammasini yig'ib, o'tgan voqealarni ipidan ignasigacha ularga hikoya qilib berdim. Chunki ular o'sha payt yosh edilar. Keyin hammamiz Abu G'iyosni duo qildik. Oradan yana qirq yil o'tgach Makkaga bordim. Lekin bu safar Abu G'iyosning farzandlari ham vafot etganini eshitdim. Alloh ularni rahmat qilsin".

Bu hikoyani imom Tabariy bir qog'ozga yozib qoldirgan ekan. Keyinchalik esa bu qo'lyozma bir kitobga kiritilgan va bizgacha yetib kelgan. Siz ham bu hikoyani yaqinlaringizga so'zlab bering. Qissadan hissani o'zingizga havola etamiz.

Yurakdan yurakka

Ba'zi odamlar sizni yaxshi, taqvodor deydi, yana bir xil odamlar fosiq deydi. Ya'ni unisi unday deydi, bunisi bunday deydi. Siz o'zingizni ham-madan ko'ra yaxshiroq bilasiz, albatta.

Gohida xushomadgo'ylar ko'p xushomad qilsa, ularga aldanib qolamiz. Bu bizni aldab qo'ymasligi kerak. Yoki malomat qiladiganlar ko'payib ketsa, ularning malomatidan botqoqqa botgandek bo'lamiz. U bizga zarar yetkazolmasligi kerak. Chunki inson o'ziga o'zi shohiddir.

Men sizga qanchalik yaqin bo'lmay, bari-bir oxirigacha anglab yetolmayman. Endi ikkinchi tarafi — toat-ibodat va gunohlar orasida yashayotgan odamlar bor. Buning eng xavfli tomonini bilasizmi? Eng xavfli tomoni — biz ikkalasidan qaysi birini qilayotgan paytimiz o'lishimizni bilmaymiz. Ibodat qilayotganda olamdan o'tamizmi yo gunoh qilayotganimizdami?

Ibodatlarni ixlos bilan, xush'u bilan qilishimiz kerak. Unda o'zimizni Allohga iltifot ko'rsatayotgandek tutmasligimiz kerak. Zero, Allohning bu toat-ibodatlarimizga hech bir muhtojligi yo'q. Alloh behojat Zotdir. Biz — o'jiz odamlarda boshqalarning yaxshi yoki yomon gapi haqida o'ylashga ehtiyoj bor. Bizning g'amimiz odamlarning sevgisimi? Ehtiyot bo'lishimiz kerak. Bunga aldanib qolmasligimiz kerak. Bugun yaxshi ko'rsa, ertaga yomon ko'radi.

Bugun sizni maqtab ko'kka ko'tarayotganlar ertaga sizni tahqirlab yerga tiqadi. Agar bu siz uchun muhim bo'lsa, albatta, qattiq ranjijisiz. O'zingizni qo'yarga joy topolmaysiz.

Biz odamlarga emas, Allohga yoqish uchun harakat qilishimiz kerak. Alloh bizni sevsa, insonlarga ham sevimli qilib qo'yaveradi. Allohga juda oson. Alloh bizni yomon ko'rsa, qancha insonlarning ko'ngliga kirishga urinmaylik, nafratga sazovor qilib qo'yaveradi.

Harom haromligicha qoladi. Biror ish ko'pchilik qilayotgani uchun halol bo'lib qolmaydi. Yomonlik baribir yomonlikdir, uni hamma qilayotgan bo'lsa ham. Yaxshilik baribir yaxshilikdir, uni hech kim qilmayotgan bo'lsa ham. Maslagimizdan voz kechmasligimiz kerak.

Boshqalarga e'tibor bermaylik. Boshqalar o'zi uchun javob beradi, biz esa o'zimiz uchun.

Shunday ekan, "Istaganimcha yashayman, bu hayot meniki", — deyolmaymiz. Buyurilganidek yashaymiz. Yaratgan buyurganidek... O'n sakkiz ming olamni yaratgan Zotga bo'ysunamiz. Kimmizki, qarshi chiqamiz?

O'zimiz uchun yashirin yaxshilik qilib qo'yishimiz kerak. Uni Allohdan boshqa hech kim bilmasin. Chunki yashirin qilingan gunohlar qanday halokatga yetaklasa, yashirin qilingan yaxshiliklar ham najotga olib boradi.

"Nega hayotim to'kin emas?" — deb boshimizni urgani devor qidiramiz. Tarixning eng buyuk ishlari oddiy bir daraxtlarning ostida bo'lib o'tmadimi? Sahobalar bay'at qilgan joylar qasrlar emasdi. Oddiy daraxtlarning tagi edi.

Olimlardan biri shunday degan ekan: «Men bitta hojatimni so'rab Allohga iltijo qilaman. So'raganimni bersa, bir xursand bo'lamen. Agar bermasa, o'n karra xursand bo'lamen. Nega? Chunki birinchisi — mening tanlovim. Ikkinchisi — g'aybni biluvchi, o'n sakkiz ming olamni yaratgan Allohning ixtiyori. Men tanlab so'radim, Alloh bermaslikni ixtiyor qildi. Bundan nega xafa bo'lishim kerak?

Bandalarning Parvardigoriga bo'lgan ishonchi naqadar go'zal. "Alloh biladi, sizlar

Yomonlik baribir
yomonlikdir, uni
hamma qilayotgan
bo'lsa ham. Yaxshilik
baribir yaxshilikdir, uni
hech kim qilmayotgan
bo'lsa ham.

bilmaysizlar". Bu har qanday shubhalarni arituvchi bir javobdir: "Alloh biladi, sizlar bilmaysizlar". Alloh biladi, biz bilmaymiz. Men bilmayman. "Nega? Qaysi gunohim uchun? Nima uchun?" Javobi oddiy: Alloh biladi, biz bilmaymiz negaligini. Buni qabul qilish shunchalik qiyinmi?

Ba'zi insonlarning hayotingizdan chiqishi yoki unga kirib kelishi Allohning sizga bo'lgan bir marhamatidir. Oh-voh chekmasligimiz kerak. "Nega? Nega unaqa?" Yo'q. Oradan bir oz vaqt o'tgandan keyin negaligi ma'lum bo'ladi. Yillar juda ko'p narsalarni o'zgartiradi. Manaman degan ustozlar tushuntira olmagan narsalarni vaqt tushuntiradi. Yillar hatto tog'larining relyefini o'zgartirib yuboradi-ku. Vaqt har narsani o'rniga qo'yadi. Agar ofatlar tufayli ajrga, savobga g'arq bo'lishimizni his qilsak edi... Bu kulfatlar boshimizdan forig' bo'lishini orzu qilmay qo'yardi inson.

Alloh taolo bizga bir narsani berish uchun-gina boshqa narsani oladi. Qadarni biz mana shu so'zlarimiz bilan kutib olaylik: "Alhamdulillah, Allohga shukrlar bo'lsin".

Salaflar bir-birlariga mana shunday vasiyatlar qilishar ekan:

Birinchisi, kim Alloh bilan orasini isloh qilsa, Alloh u bilan insonlarning orasini isloh qilib qo'yadi.

Ikkinchisi, kim ichki dunyosini tuzatsa, Alloh uning tashqi dunyosini tuzatib qo'yadi.

Uchinchisi, kim oxiratning g'amini yesa, Alloh taolo uning dunyo va oxirat ishlariga kifoya bo'ladi.

Eng katta hasrat — mag'lubiyat nima? Cheki-chegarasi qanchaligini faqat Alloq biladigan jannatda sizga ozgina joy topilmasa, bundan katta mag'lubiyat bo'ladimi? Hayotimizni g'animat bilaylik. Chunki u bizni oxiratga olib boruvchi dasturxondir. Alloh hammamizni mag'firat qilsin.

Do'stlar imtihondan o'ta olishmadi

Bir yigitning otasi: "Do'st tanlashda e'tiborli bo'lgin. Kim bilandir biror ish qilmoqchi bo'lsang, e'tiborli bo'lgin. Yaqinlashayotgan odamlaringga e'tiborli bo'lgin. Oldi-berdi qilayotgan odamlaringga e'tiborli bo'lgin", — deb doim ogohlikka chaqirarkan.

Bola balog'atga yetganida otasi yana o'sha gapni aytibdi. Shunda o'g'li: "Ota, hadeb shunaqa deyaverasizmi? Axir, yosh bola emasman-ku. Men do'stlarimning hammasiga ishonaman. Hammasi sinovimdan o'tgan", — deb katta gapiribdi. Otasi debdi:

— Bolam, bo'lmasam, do'stlaringizni bir imtihon qilaylik.

— Xo'p. Do'stlarim menga shu qadar yaqinki, istalgan imtihoningizdan o'tishadi.

— Shunaqami? Bo'lmasa, qo'yxonadan qo'chqorni olib chiqing.

O'g'il qo'chqorni olib chiqibdi. Ota yana debdi:

— Endi buni so'ying.

O'g'il so'yibdi.

— Endi buni maydalang.

O'g'il maydalabdi.

— Endi xaltaga soling.

Xaltaga solibdi.

— Endi bu xaltani yelkangizga ortasiz-da, qorong'i tushishi bilan eng ishongan do'stingizning uyiga borasiz.

Yigit qo'yni o'zi so'ygani uchun u yer-bu yeriga qon tegibdi. Qo'llari qon bo'libdi. Qo'lida pichog'i bor. Ota debdi:

— Shu holatda do'stingizning eshigini taqillatasiz-da, "Do'stim, men bir jinoyat qilib qo'ydim", — deysiz. Boshqa gap aytishingiz shart emas. Hammasi ma'lum bo'ladi.

O'g'il otasi aytganidek qilib eng ishongan do'stining eshigini taqillatibdi. Ichkaridan chiqqan do'sti hayron bo'lib: "Iye, tinchlikmi? Nima bu ahvol?" — deb so'rabdi. "Do'stim, bir jinoyat qilib qo'ydim", — deyishi bilan eshikni yuziga taqillatib yopibdi. "Yo'qol, ko'zinga ko'rinma", — deb haydabdi.

U do'stiga boribdi, bu do'stiga boribdi. Bir xillari gapini oxirigacha ham eshitmasdan eshikni yuziga yopishibdi. Bola abgor bo'lib-

Har kim o'zini
do'stdek tuta oladi.
Lekin tegirmonning
charxpalagi teskari
aylanib qolganida,
boshingizga bir balo
kelganida bitta-
ikkitasi yo qoladi, yo
qolmaydi.

di, tamom bo'libdi. Otasining oldiga tarvuzi qo'ltig'idan tushib kelibdi. Otasi so'rabdi:

— Nima bo'ldi, o'g'lim?

— Ular menga do'st emas ekan. Bir xillari gapimni oxirigacha ham eshitmadi. Ayrimlari hatto haqorat qildi. Ayrimlari so'kdi. Lekin ichidan: "Nima bo'ldi? Qanday bo'ldi?" — deb so'ragani chiqmadi. Sizning do'stlaringiz ham shunaqami, ota?

— Endi bizning do'stlarimizda ham sinab ko'ramiz. Siz shu ahvolda falon do'stimning uyiga borib, eshigini taqillating.

O'g'li kayfiyati yo'q holda borib otasining do'stinikiga borib, eshikni taqillatibdi. Otasining do'sti yigitning ahvolini ko'rib: "Iya, kirkir, ichkariga kir", — debdi. Yigit: "Men bir jinoyat qilib qo'ydim", — desa, "E, jim bo'l, gapirma", — debdi. Bog'dagi gulzorning o'rtasidan bir chuqur qazib, boyagi xaltani u yerga ko'mibdi, bolaning yuvinishiga sharoit qilib beribdi, "O'g'lim, ertalabgacha shu yerda qol. Boshingga bir muammo kelmasin. Ertalab turib, ketasan", — debdi. Bola aytganini qilibdi, ertasi kuni tongda turib, uyiga qaytibdi. Otasiga bo'lgan voqeani aytib beribdi:

— Eshikni taqillatishim bilan ichkariga oldi. Gapirishimga ham qo'ymadi. Gulzorning o'rtasidan chuqur qazib, yelkamdagi xaltani

olib borib ko'mdi. Haqiqiy do'st shunaqa bo'ladi, ota. Sizning do'stlaringiz haqiqiy ekan.

— Shoshmang, o'g'lim. Bugun juma. Masjidda odamlarning oldida borib, o'sha do'stimizni haqorat qiling.

— Nega, ota?

— Ha, borib, bir haqorat qiling. Keyin bilamiz do'st yo do'st emasligini.

O'g'il otaning aytganini qilibdi. Masjidning o'rtasida otasining do'stiga har xil noma'qul gaplarni gapiribdi. Boyagi odam bir chekkaga tortib: "Borib, otangga ayt, bunaqa arzimas haqoratlar uchun gulzorning o'rtasidagi chuqurni ochadiganlardan emasman", — debdi. Ya'ni haqiqiy do'st ekanini isbotlabdi.

Qissadan hissa: Do'stlar omad kelganda emas, ketganda sinaladi. Ishlaringiz zo'r bo'lib tursa, hamma do'stdek ko'rinaveradi. Har kim o'zini do'stdek tuta oladi. Lekin tegirmonning charxpalagi teskari aylanib qolganida, boshingizga bir balo kelganida bitta-ikkitasi yo qoladi, yo qolmaydi. Ranjimaslik kerak, alhamdulillah deyish kerak. Alloh yaxshi va yomonni ajratib bergani uchun shukr qilishimiz kerak. Eng muhimi, bizga sadoqatini isbotlagan do'stlarimizni qadrlashimiz, qo'limizdan kelgan yaxshiliklarni ayamasligimiz kerak.

Hislar tildan dilga ko'chgandagina amallarda namoyon bo'ladi

Kunlardan bir kuni insonlardagi mehr-oqibat, sevgini sinash uchun bir guruh odamlarni dasturxonga taklif qilishibdi va dastasi uzun-uzun qoshiqlar qo'yishibdi. Darvesh qoshiqlari deyiladi. Kosalarda sho'rva keltirishibdi. "Faqat dastasining uchidan ushlaysiz. O'rtasidan yo boshqa yeridan ushlash mumkin emas", — deyishibdi. Ular rozi bo'lishibdi. Qoshiqning uchidan ushlab sho'rvani olisharmish-u, dasti uzunligidan og'ziga olib kela olishmasmish. U yog'iga to'kishibdi, bu yog'iga to'kishibdi. Xullas, och holda dasturxondan turishga majbur bo'lishibdi.

Ikkinchi guruh odamlarni olib kelishibdi, ularga ham xuddi shu shartni aytishibdi. Odamlar o'tirishibdi. Qarashsa, dastasi juda uzun. O'zlarining og'zilariga olib borisholma-

Bu dunyo bozorida
har doim oladiganlar
emas, beradiganlar
g'olib bo'ladi.

yapti. Qoshiqni olib, bir-birlarining og'ziga olib borishibdi. Shunday qilib, bir-birlarini ovqatlantirishibdi.

Bu qissadan qanday hissa chiqaramiz? Birinchi guruh nega och qoldi? Ular og'izda muhabbatdan, sadoqatdan, vafodan, yana al-lambalolardan bong urishardi-yu, faqat hammasi tilda edi — qalbga ko'chmagandi. Shuning uchun oddiy yechim topa olmay och ketishdi.

Ikkinchi guruh a'zolari rostdan ham bir-biriga muhabbatli edi, bir-biriga sadoqatli edi. Ular muammoni tezda bartaraf etishdi va qorinlarini to'yg'azib ketishdi.

Bu dunyoning dasturxonida faqat o'zingizni o'ylaydigan bo'lsangiz, och qolasiz. Agar do'stingizni to'yg'azish haqida bosh qotirsangiz, uning muammolarini yechish borasida bosh qotira boshlasangiz, o'zingizning muammolaringiz ham yechim topa boshlaydi. Nega? Chunki do'stingiz ham sizning muammolaringizni o'ylay boshlagan bo'ladi. Eng asosiysi, bu dunyo bozorida har doim oladiganlar emas, beradiganlar g'olib bo'ladi. Faqat olishga o'rganganlar oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchraydi.

Hovlidagi daraxt hikoyasi

Toshkentdagilar biladi, Yakkasaroy tumanida Bobur xiyobonidan o'ng tomonda Rakat mahalla bor. Rakat mahalladagi ko'chalardan birida 35-uy bor. O'sha 35-uyning maydoni ikki sotix atrofida. O'sha uy hovlisining o'rtasida (xuddi bir xazinaning manzilini aytayotgandekman; aslida, u xazina edi ma'lum ma'noda) katta o'rik daraxti bor. O'sha o'rik daraxti menga shu paytgacha har qanday insondan ko'proq yaxshilik qilgan. Qanday qilib deysizmi? Hozir hammasini aytib beraman.

O'rik daraxti shu darajada katta edi, shu darajada ko'p hosil solardiki... Bahorda dovuchchasini yerdim. Har kuni. Tuzga botirib. Yozda mevasini — o'rigini tanovul qilardim. Keyin bir qismi to'kiladi. Bir qismini terib olib, quritib qo'yaman. Turshak bo'ladi. Kuzda sovuq tushganida turshagini yerdim. Danagini olib qo'yardim. Qishda

Xuddi bir
xazinaning manzilini
aytayotgandekman;
aslida, u xazina edi
ma'lum ma'noda.

danagini chaqib, ichidagi mag'zini yerdim. Sheriklarim, mehmonlarim ham bo'lgan. Lekin asosan hovlida men turardim. O'rik mening hamrohim edi.

Alloh rizqimizni shu orqali berib qo'ygandi. O'qishdan olgan stipendiyalarimiz ijara puliga yetardi, xolos. Allohga beaded shukrlar bo'lsin, o'sha o'rik sabab bizning o'qimaslik uchun bahonamiz bo'lmagan. Albatta, o'ynab-kulganmiz. Lekin musofirchilikda qornim qanday to'yadi degan xavotir yo'q edi. Nima bo'lganda ham, uyda o'rigim bor-ku degan fikr bo'lardi.

Bugun yoshlarimizning bahonalari ko'p-ku. Agar o'qisam, bu ishlarni kim qiladi deyishadi-ku. Aslida, bularning hammasi bo'sh bahona. Har birimiz hayotimizga bir razm solsak, Alloh azza va jalla hammamizga ana shunday bir "o'rik"ni berib qo'yibdi. Kimgadir o'rik shaklida, kimgadir inson shaklida. Buni yaxshi anglamaganimiz uchun doim to'g'ri yo'ldan og'ish uchun bahona qidiramiz.

Agar inson hayotiga tafakkur ko'zi bilan qaraydigan bo'lsa, bu "o'rik"ni albatta topadi. Uni topganida bu dunyoning ko'plab sirlarini yechgandek bo'ladi. Natijada xotirjam tortadi. "Endi nima qilaman? Qanday qilaman? Kimdan

yordam so'rayman?" degan og'riqli savollardan bir qadar qutuladi. Alloh hammamizni rizq borasida hech shubhaga bormay, O'ziga tavakkal qilib, ishonib, suyanib yashaydiganlardan qilsin.

Metrodagi tajriba

Bir kuni tongda allakim Vashingtondagi metroning ichida skripkasi bilan Baxning o'nta mashhur musiqasini ijro etdi. Bu 45 daqiqa davom etdi. O'nta musiqani ijro etish...

O'sha paytda uning oldidan minglab odamlar o'tdi. Musiqa chalishni boshlaganidan 10 daqiqalar o'tib o'rta yoshli bir odam 3-4 soniyaga to'xtadi, keyin yana yurishda davom etdi. Birozdan keyin o'rta yoshli bir ayol sekin yurib keldi-da, bir dollarni tashlab, yana yo'lida davom etdi. Uchinchi bir odam keldi. Yoshroq odam. Engashib biroz musiqani tingladi, keyin soatiga qaradi, boradigan joyi esiga tushdi va yo'lida davom etdi. Oradan yana ozroq vaqt o'tib bir yosh bola onasini qo'yarda-qo'ymay bir-ikki daqiqa tinglagandek bo'ldi. Keyin onasining yodiga boradigan joyi tushib, bolani sudrab-sudrab olib ketdi. Bola qayrilib-qayrilib qarab ketdi. Bu holat bir nechta bolalar bilan sodir bo'ldi. Mana shu 45 daqiqaning ichida yigirma

Nolishni boshlaymiz:
hayotimiz unday,
hayotimiz bunday; u
yaxshi, bu yomon.
Lekin, aslida, o'sha
yaxshini ham,
yomonni ham
tanimaymiz.

nafar odam oz-moz musiqachiga e'tibor qaratdi va 32 dollar pul yig'ildi.

Musika chalayotgan skripkachi kim edi, bilasizmi? Joshua Bell. Dunyodagi eng mashhur skripkachi. Qo'lidagi skripkasi esa uch yarim million dollar turardi. Dunyodagi eng yaxshi musiqalarni chaldi. Vaholanki, ikki kun oldin Bostonda bergan konsertida chipta o'rtacha yuz dollar atrofida sotilgandi. Ming-minglab odamlarga. Lekin Vashingtondagi minglab odamlar unga diqqat ham qilmadi. E'tibor qaratmadi. Sezmadi, bilmadi, oldidan o'tib ketdi.

Bundan qanday xulosaga kelamiz? Har narsa o'zining joyida, o'zining vaqtida, qadrini biladiganlar orasida go'zal. Sizning biror iqtidoringiz bor, lekin men uchun uning hech qanday ahamiyati bo'lmasligi mumkin. Mening biror yaxshi jihatim bor, siz juda ham shoshayotganingiz uchun bunga e'tibor qilmasligingiz mumkin.

Gohida odamlar faqatgina odamlar eshitayotgani uchun, odamlar qilayotgani uchun (bir aytgandik, ko'pchilik bir narsaga ittifoq qilgan bo'lsa, u ish to'g'ri degani emas) o'sha narsaga intiladi.

Agar biz Baxning musiqalarini sezmayotgan bo'lsak, hatto ularni mashhur sozandalar ijro etsa-da, sezmayotgan bo'lsak, hayotda, kim

bilsin, qancha narsani sezmay o'tkazib yubor-yapmiz ekan.

Masalan, bir varrakni turli rangga bo'yab qo'yasiz va uni aylantirasiz. Tez aylanganida birorta rangni ko'rasizmi? Ko'rmaysiz. Nega? Chunki u juda tez aylanyapti. Biz ham hayot-da shunday yashaymiz. Tez-tez bir manzildan ikkinchi manzilga chopamiz va hech narsani ko'rmaymiz — ranglarni, go'zalliklarni, manzaralarni — manzilga boramiz va hech narsa esimizda qolmaydi. Nolishni boshlaymiz: hayotimiz unday, hayotimiz bunday; u yaxshi, bu yomon. Lekin, aslida, o'sha yaxshini ham, yomonni ham tanimaymiz.

Jasorat haqida

Ikkita bokschi bir-birini urib yiqitadi. Yiqilish muammomi? Muammo emas. Hamma yiqilishi mumkin. Hayotda yiqilmaydigan odamlar juda kam bo'ladi. Aksar odamlar yiqiladi. Bokschilarning ham hammasi yiqiladi. Yiqilish uyatli emas. Chunki har kimning boshiga tushishi mumkin. Asl muammo yiqilgandan so'ng to'qqiz soniya ichida tura olmaslikdir. Yiqilgan har bir bokschi ham to'qqiz soniya ichida tura olmaydi. Agar tursa, u muammo emas. Turishni uddalay olgan odamlar yiqilmadim desa ham bo'laveradi.

Biz ana shu turadiganlardan bo'lishimiz kerak. Buning uchun nima qilishimiz kerak? Turgan odamda nima yuz beradi? O'ziga ikki marta ishonch hosil bo'ladi: "To'g'ri, yiqildim. Ammo qaytib turdim. O'ninchi soniyaga o'tkazmadim". O'ninchi soniyaga o'tib ketsa, nima bo'ladi? O'ziga bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Turish uchun nima kerak? Jasorat kerak. Kimdagi jasorat bo'lsa, u o'rnidan turishni uddalaydi.

“Jasorat” soʻzidan “j”
harfini olib qoʻysangiz,
“asorat” boʻladi. Inson
yo jasoratli boʻladi, yo
asoratli boʻladi.

Jasorat bizga mavhum bo'lgan nimanidir borib bilishdan qo'rqmaslikdir. Bizni dahshatga solayotgan narsalarga yuzma-yuz bo'lishdir. "Jasorat" so'zidan "j" harfini olib qo'ysangiz, "asorat" bo'ladi. Inson yo jasoratli bo'ladi, yo asoratli bo'ladi. Ikkalasining o'rtasida bo'lmaydi.

Yoshligimda qo'y boqardim. Uzoqda daraxtlar bo'ladi-ku. O'sha daraxtlarning ortida qanday odamlar yasharkin deb o'ylardim. Lekin hech borib ko'rmaganman. Aqlim yetmagan.

Bugun o'ylayman, biz o'zimizni qo'rqitayotgan, hurkitayotgan narsalarni deb joyimizdan qimirlamaymiz. Borib ko'raylik, balki, bizni qo'rqitayotgan hech narsa yo'qdir. Lekin u yerga qarab turaversak, ahvolimiz o'zgarmaydi, asoratda qolaveramiz. Shuning uchun qo'rqmaslik kerak.

Bordi-yu bizga ma'qul kelmasa, boshqa yo'lni tanlaymiz. Balki, u yerda bizni qo'rqitadigan hech narsa yo'qdir. Shuning uchun jasoratli bo'ling.

Diqqatli bo'ling

Sizga bir narsani eslatish uchun necha marta harakat qilish kerak? Masalan, nima qilsa, siz doim e'tiborli bo'lasiz? Misol uchun, sizga: "Hoy bola! E'tiborli bo'l!" — deb necha marta tanbeh berilsa, e'tiborli bo'lasiz? Bir martadami yo ikki-uch martada?

Bir odam qimmatbaho mashina olibdi. "Yaguar" deganidan. U yo'lning ikki chekkasidagi mashinalar orasidan bolalar yugurib chiqib qolmasin deb mashinani mahallada sekin haydab ketyapti. Ayni paytda, mashinasining go'zalligidan, qimmatbaholigidan ich-ichidan maza qilyapti.

U ikkita maqsadda e'tiborli: birinchisi, birovni urib ketmay deyapti. Ikkinchisi, mashinamga ziyon yetmasin deyapti. Lekin qara-diki, bir tosh uchib kelib, mashinasiga "qars" etib tegdi. Kim otganini ham ko'rmadi. Mashinadan g'azab bilan tushdi. Biroz yurib qarasa, mashinalarning orasida bir bola turibdi. Bolani ko'tarib, mashina kapotining ustiga qo'ydi-da,

"Aqling joyidami?! Shunday mashinani rasvo qilding! Buni ta'mirlatish uchun qancha pul sarflashimni bilasanmi?!" — deb ichidagi bor g'azabini sochib, boyagi bolani qo'rqitib yubordi.

Bola o'ziga kelib: "Amaki, amaki, men rosa ishora qildim, lekin hech kim to'xtamadi. Keyin tosh otishga majbur bo'ldim. Nogiron akam aravasida pastga qulab tushdi. Qattiq yaralandi. Uni ko'tarib, aravasiga o'tqazishga kuchim yetmayapti. Aravasini olib tushdim. Lekin o'zini o'tqizolmayapman. Qancha odamlarga qo'l ko'tardim. Hech kim ishoralarimga qaramadi. Shuning uchun tosh otishga majbur bo'ldim. Siz akamni ko'tarib, aravasiga o'tirg'izishga yordam berasizmi?" — dedi.

Boyagi odam qotib qoldi. Tushdi. Yiqilib yotgan, u yer-bu yeri qonagan bolani aravachasiga o'tqizdi. Cho'ntagidan oppoq ro'molcha chiqarib, jarohatlarini arttdi. Boyagi tosh otgan bolacha indamasdan aravachani sudrab ketdi.

"Yaguar"ning egasi mashinasiga sekin borib o'tirdi va yana shoshmasdan haydab ketdi. Juda uzoq yurdi. U hech qachon o'sha tosh tekkan joyni ta'mirlatmadi. Bilasizmi, nega? Bu saboq hech qachon esdan chiqmasligi uchun. Qaysi saboq? Hech qachon odamlar bir narsani tushuntirish uchun, ahvollarini anglatish

Hech qachon
odamlar bir narsani
tushuntirish uchun
tosh otishga majbur
bo'lmashlar.

uchun unga tosh otishga majbur bo'lmasliklari uchun. Odamlarning muammolarini ko'rish, his qilish, ularga yordam berish hamisha yodida turishi uchun.

Biz bu hikoyadan qanday xulosa chiqaramiz? Alloh azza va jalla har doim bizga turli ishoralar beradi, lekin biz shoshib, hovliqib, havolanib yurganimiz uchun hayotimizga ke layotgan bu muammolarni ko'rmaymiz. Agar kelgan bo'lsa, u muammolarning yechimini topmaymiz. Keyin qayerdandir bir qattiq tosh kelib tegadi bizga. Keyin tushunib yetamiz. Agar e'tiborli bo'lganimizda edi, bizga u toshlar kelmas edi. Kimdir ovozini chiqarib, xatti-harakatlar qilib yordam so'rashini kutmasligimiz kerak. Agar hayotimizga e'tiborli bo'lmasak, shoshib, havolanib, dimog'lanib, kibrlanib yashasak, kunlarning birida qayerdandir tosh uchib keladi-da, aqlimizni joyiga keltirib qo'yadi.

Barakali bir dirham

Bir ota betob bo'lib qolibdi. To'rt-besh nafar o'g'li bor ekan. Kenjasi: "Otamga men qarayman. O'zim boqaman. Umrinning oxirigacha xizmatini qilaman. Evaziga merosdan voz kechaman", — debdi.

Qarang, hayron bo'lyapsiz-a? Shu qadar bizga begona bu holat... Bizda qanday bo'ladi? "Evaziga merosni men olaman", — deyiladi... U bo'lsa: "Evaziga merosdan voz kechaman", — deyapti. Biz nima qilyapmiz? Biz otamizdan amal-taqal qilib olishimiz kerak. Otamiz bilan ishimiz yo'q. Odamlar shu darajaga yetib kelinganki, hozir bu fikrni miyamiz qabul qilolmaydi.

"Otamga men qarayman, evaziga otamdan qoladigan har narsadan voz kechaman", — debdi. Aka-ukalar rozi bo'lishibdi.

Otasiga qarabdi. Umr bo'yi xizmatini qilibdi. Ota rahmatli bo'libdi. Bu dunyodan ketibdi. Umri poyoniga yetibdi.

Otaning xizmatini qilgan, uning merosi-dan ulush tegmagan bola qiyin ahvolda qolib ketibdi. Ish yo'q, meros yo'q. Lekin sabr bor. Bir kun tush ko'ribdi. Tushida nuroniy bir odam aytibdiki: "Falon toshni ko'tarsang, tagida yuz dirham bor, lekin barakasi yo'q". Uyg'ongan-dan keyin bu haqda o'ylabdi. O'sha pul qay-si toshning tagidaligini biladi. Lekin barakasi yo'q. "Barakasi bo'lmasa, kerak emas", — debdi. Oradan ozgina vaqt o'tganidan keyin ro'zg'orda yana yetishmovchilik boshlanibdi va yana bir tush ko'ribdi. Tushida yana o'sha odam: "Falon toshning tagida o'n dirham bor. Lekin unda ham baraka yo'q", — debdi. "Alloh, Allah, buning ham barakasi bo'lmasa, nima qilaman olib?" — debdi bola. Kunlar o'tibdi. Yana tush ko'ribdi. Tushida yana o'sha odam: "Falon toshning tagi-da barakali bir dirham bor", — debdi. Uyg'onib: "Barakali dirhamni olaman", — debdi.

Boribdi, toshni ko'tarib qarasa, haqiqatan ham uning tagida bir dirham bor ekan. Uyiga qaytib kelibdi. Bir dirhamga o'sha payt bit-ta baliq berar ekan. Bola-chaqasiga nimadir olib kelishi kerak-ku. Baliq sotib olibdi. Uyiga olib kelib, ochib qarasa, ichidan marvarid dur chiqibdi. Ikkita! U durning narxini bilmaydi-ku. Bittasini ayoliga berib: "Taqib yurasan", — debdi.

Millionlar sarflab
osh berish,
qimmatbaho qabrtosh
o'rnatishda zarracha
mantiq yo'q. Bu
ko'zbo'yamachilikdan
boshqa narsa emas...

Ayoli xursand bo'libdi. Ikkinchisini bozorga olib borib sotibdi.

Qimmatbaho toshlar bilan shug'ullanadigan bir odam undan durni sotib olibdi. Ancha pul beribdi. Uyiga bozor-o'char qilib, kam-ko'stini to'ldiribdi, yonida ozgina pul ham qolibdi. Xursand bo'lib yotsa, kechqurun dupur-dupur qilib podshoning navkarlari kirib kelishibdi. Uni podshoning huzuriga olib borishibdi.

Podsho so'rabdi:

— Mana bu durni sen sotdingmi?

— Ha, men sotdim.

— Uni qayerdan olding?

— Bir baliqning ichidan chiqdi.

— Ikki chiqqan bo'lishi kerak. Ikkinchisi qani?

— Ikkinchisini ayolimga sovg'a qildim.

— Uni menga sot. Qancha desang, bera-man.

Sizga savol: qancha derdingiz? Bu voqeani aytib bergan odam o'g'lini qo'lida ko'tarib hikoya qilgan ekan. Shunda o'g'lidan so'rabdi: "O'g'lim, agar podsho senga shu gapni aytganida, qancha so'rarding?". O'g'li: "Barakali bir dirham so'rardim", — debdi.

Bizning jamiyatimizdagi juda ko'p o'lchovlar noto'g'ri. Meros, mulk, yer masalalarida... Ota-onalar keksayganida ularni yarim yo'lda

tashlab ketayotganlar uchun bu ibrat bo'lishi kerak. Bizning o'lchovlarimiz noto'g'ri.

Biz ham ota-onalarimizga qarash uchun aka-ukalarimiz bilan talashishimiz kerak. "Men qarayman, ularga men g'amxo'rlik qilaman", — deyishimiz kerak. Keyin kech bo'lishi mumkin. Millionlar sarflab osh berish, qimmatbaho qabrtosh o'rnatishda zarracha mantiq yo'q. Bu ko'zbo'yamachilikdan boshqa narsa emas...

Jasorat, matonat, sadoqat

Birov bizga “A” desa, biz “B” deymiz. Ya’ni aybdorligimizni tan olishga kuchimiz yetmayotganini bilsak ham, har doim o’zimizni oqlashga urinamiz. Nima bo’lganda ham aybdor biz emasmiz. Yonimizdagi kimdir “A”, deb bizni qoralasa, biz unga “B” deymiz. Ya’ni: “Ha, to’g’ri aytyapsiz, xato menda”, — demaymiz. Kuchsizligimiz mana shu yerda. Chunki tan olinmagan narsalar usti berkitilgan narsalardir.

Masalan, tanamizda bir yara bor. Biz uning ustini berkitib yuribmiz. Hatto terisini bitirib yubordik. Yarani ochib, ichini tozalamadik. U ichdan yiringlashda davom etaveradi. Uni yashirishga qanchalik urinmaylik, baribir bir kuni teshib chiqadi. Gazak olib, sasiydi. Yonimizda keyin turib bo’lmay qoladi-da.

Shuning uchun tuzalishga harakat qilish kerak, tuzatishga emas. Chunki tuzalmaganlar tuzata olmaydi. Avval har kim o’zini tuzatishi

kerak. Biz doim boshqalardan (go'yo bizda yo'q-da, boshqalarda bor u narsa...) kamchilik qidiramiz, ko'ramiz, sabablarini aytamiz, oqibatlarini tushuntiramiz. Ayni shu narsa o'zimizda ham bor, ammo o'zimiznikini ko'rmaymiz. Nega? Chunki biz o'zimizga do'st emasmiz! Do'st bo'lsak, o'zimizga buni ravo ko'rmagan bo'lar edik. O'zimizga do'st bo'lsak, taftish qilinishi kerak bo'lgan odam o'zimiz ekanini tushunar edik.

Aybdorligingizni tan olsangiz, boshqalarining yuziga tik qaray olasizmi? Yo'q. Chunki aybingizni his qilib turibsiz. O'sha aybingizni tuzatganingizdan so'nggina ko'nglingiz xotirjam bo'lishi mumkin. Kuch qanday bo'lishi kerakligi haqida bir hikoya aytib beraman. Jasorat va matonat haqida. Tarixda bo'lib o'tgan.

Umar ibn Xattob (r.a.) rumliklar bilan jangga bir lashkar yuboradi. Askarlar orasida hammamizga yaxshi tanish bo'lgan yosh sahoba Abdulloh ibn Huzofa (r.a.) ham bor edi. Musulmonlar va rumliklar orasidagi jang uzoq davom etadi. O'sha paytdagi rumliklar shohining ismi Qaysar edi. Qaysar musulmonlarning matonati va o'limga tashna ekanligidan hayratga tushadi. Janglarda ularning qaytmasligini, ortga chekinmasligini ko'rib lol qoladi. Jangdan so'ng Qaysar asir tushgan musulmon askarlarni olib

Onasi tanqid qilsa,
otasi yonini oladi,
otasi tanqid qilsa,
onasi yonini oladi.
Bolaning nazdida
ota-ona bir-biriga
dushman. Ikkita
dushmanning
o'rtasida tarbiya
topadi.

kelishlarini buyuradi. Askarlar oyoq-qo'llari kishanlangan Abdulloh ibn Huzofani Qaysar-ning yoniga olib kelishadi. Shoh u bilan biroz suhbatlashib, uning ziyrakligidan lol qoladi va:

— Agar nasroniylikni qabul qilsang, seni ozod qilaman, — deydi.

Abdulloh ibn Huzofa rad javobini beradi. Shoh:

— Nasroniylikni qabul qil. Agar shunday qilsang, mulkimning yarmi seniki bo'ladi, — deydi.

Bu gapni rumliklar shohi aytyapti. Abdulloh yana: "Yo'q", — deb javob beradi. Shoh bu safar unga:

— Nasroniy bo'l. Saltanatimning yarmini beraman, seni podshohlikka sherik qilaman, davlatni birga boshqaramiz, — deydi.

Abdulloh aytadi:

— Allohga qasamki, bir ko'z yumib-ochish miqdoricha dinimdan qaytishim uchun o'z mulking, otalaringning mulki va yana barcha arabu ajamning mulkini bersang ham, aslo bunga rozi bo'lmayman. Dinimdan, e'tiqodimdan voz kechmayman.

Shohning g'azabi keladi. "U holda, men seni o'ldiraman", — deydi. Abdulloh: "O'ldiraver, qo'lingdan kelganini qil", — deydi. Shoh uni qo'rqitish uchun xochga osib, kamonchilar-

ga o'q uzish haqida buyruq beradi. Bu asnoda Abdullohga surunkali ravishda nasroniylilikni qabul qilishni taklif etishadi. U bosh tortishda davom etadi. Hatto o'ldirishlarini kutadi.

Qaysar: "Uni zindonga olib boring. Ovqat ham, ichimlik ham bermang", — deydi. Zindonga tashlab, uni ovqat va suvdan mahrum qilishadi. Ochlikdan tinkasi qurib, o'lar holga keladi. Keyin Abdullohning huzuriga aroq bilan to'ng'iz go'shtini olib kirishadi. Och va chanaqagan odamga. O'sha holatda oldiga olib kelib qo'yilgan narsalarni yesa bo'ladi. O'lim xavf solib turgani uchun unga halol. Lekin: "Kofirlar ustimdan kulishlariga aslo yo'l qo'ymayman", — deb ovqatga ham, aroqqa ham yaqinlashmaydi.

"Endi unga eng yaxshi taomlarimizdan beringlar, — deydi shoh. — Ana undan keyin bir hurliqo ayolni Abdullohning oldiga kiritinglar".

Unga ovqatlarni berishadi, keyin bir hurliqoni kiritishadi. Abdulloh ibn Huzofa qayrilib ham qaramaydi.

Ayol chiqib: "Meni qanaqa odamning oldiga olib kirdinglar? Bu insonmi yo toshmi, bilib bo'lmadi. Hatto mening erkak yo ayolligimni ham bilmadi, shekilli", — deydi.

Rumliklar shohi undan umidini uzgach, mis qozonga yog' to'ldirib qizdirishlarini amr etadi. Qozon boshiga Abdullohni olib borib,

uning ko'z o'ngida kishanlangan boshqa bir musulmonni qizib turgan yog'ga tashlashadi. U dod solib baqiradi va jon taslim qiladi. Yog' qizib turganida odam tushishi bilan etni suyakdan ajratib yuboradi. Abdulloh bularning hamma-sini ko'rib turadi.

Shoh unga qarab aytadi: "Yana qaytaraman, nasroniylikni qabul qil". U yana ko'nmaydi. Shoh qattiq g'azablanib: "Uni yog'ga tashlang", — deydi. Ular Abdullohni qozonga sudrashadi, Abdulloh yog'ning haroratini sezganida yig'lab yuboradi. Buni ko'rgan shoh xursand bo'ladi, ichida umid tug'iladi va: "Agar nasroniy bo'lsang, senga uni beraman, buni beraman", — deydi. Abdulloh yana rad etadi. Shoh ajablanib: "Nega rad etyapsan? Istamayotgan bo'lsang, unda nega yig'layapsan?" — deb so'raydi. Shunda Abdulloh: "Mening bittagina jonim bor. Hozir shu birgina jonim bilan qozonga tashlaysizlar, men shu bilan vafot etaman. Xohlardimki, boshimdagi sochlarim qadar jonim bo'lsa, barchasini Alloh yo'lida bitta-bitta fido etsam", — deydi.

Shundan keyin shoh undan butunlay umidini uzadi va: "Agar mening peshonamdan o'psang, seni ozod qilaman", — deydi.

Abdulloh ibn Huzofa: "Menga qo'shib hamma musulmon asirlarni qo'yib yubo-

rasanmi?” — deb so‘raydi. Shoh bunga rozi bo‘ladi. Abdulloh turib, uning peshonasidan o‘padi. Keyin asirlar bilan birga sayyidimiz Umar ibn Xattobning oldiga qaytadi.

Umar ibn Xattobga voqeani aytib berishganida: “Har bir musulmon Abdulloh ibn Huzofaning peshonasidan o‘pishi kerak. Buni men boshlab beraman”, — deb o‘rnidan turib, Abdullohning peshonasidan o‘padi.

Bunday ishni kim qila oladi? Bunday kuchga kim ega bo‘la oladi? O‘zini tanigan odam. Inson o‘zini qachon taniydi? Xatolarini tanisa, kamchiliklarini tanisa! Nega? Chunki ularni tanisagina tuzatadi. Tanimasa, qayerdan tuzatadi? To‘g‘rimi?

“Ey, birovning haqiga xiyonat qilma”, — desa, bir bahonamiz bor. “Ey, ichkilik ichma”, — desa, o‘nta bahonamiz bor. “Ey, to‘g‘ri yur. Ibodatda qoim bo‘lg‘in”, — desa, mingta bahonamiz bor: ishim, vaqtim, unim-bunim... Har doim hayotdan zarba yeb, peshonamiz g‘urra bo‘lib, burnimiz qonaganida: “Bo‘ldi, unday bo‘laman, bunday bo‘laman”, — deb o‘zimizga so‘z beramiz. Afsuski, bu quruq va‘dadan boshqa narsa emas. To‘g‘risi-da. O‘zini aldayotgan odam o‘zgara olmaydi. O‘ziga ko‘p rahm-shafqat qiladigan odam hech narsa qila olmaydi. Nega? Chunki o‘zini o‘zi tuzatishga qurbi yetmaydi.

Kim kamchiligini aytgan odamni o'ziga dushman deb biladi? O'ziga hech qachon do'st bo'lmagan odam. Hatto biz otalarimizga ham do'st emasmiz. Otalarimiz: "Unday qilma, bunday qil. U to'g'ri yo'l emas, bu to'g'ri yo'l", — deyishsa ham, malol olamiz.

Atrofingizga qarang. Yoshlar, shu haqida bir o'ylab ko'ring. "Ey, falonchi qiz senga, oilangga to'g'ri kelmaydi", — desa, dunyodagi eng yomon odam otamiz bo'lib ko'rinmaganmi? "U bilan do'st bo'lmagin, oyog'i egiroq. Yomon yo'lga boshlaydi. O'zingni tortgin", — desa, "O'zim bilaman. Yosh bola emasman", — deydi. O'zicha: "Eski dunyoqarashi bilan yangi zamonning ishlarini tushunmaydi-da", — deydi. Onasi ham: "Ha, xafa bo'lma, otangning bori shu-da", — deydi. Onasi tanqid qilsa, otasi yonini oladi, otasi tanqid qilsa, onasi yonini oladi. Bizning o'zbek oilalarida ko'p kuzatiladigan holat. Bolaning nazdida ota-ona bir-biriga dushman. Kulgili bu. Ikkita dushmanning o'rtasida tarbiya topadi-da. Kim bo'ladi keyin? Afsus...

Burgutlardan o'gitlar

Burgutlar umrining so'ngigacha bitta oila qilalar ekan — hech qachon juftini almashtirmas ekan. Keyin insonlar borishi qiyin bo'lgan joylarga — tog'larning cho'qqilariga, o'rmonlarga in qurib yashashar ekan.

Qushlar orasida burgut eng uzoq umr ko'radi. Yetmish yoshgacha. Tuxumdan chiqqanidan keyin uch yil ichida u haqiqiy ov qiladigan katta burgutga aylanadi. Hamma burgut ham yetmishga kirmaydi. Qirqdan keyin o'lib ketadiganlari ham bor. Qirq yoshda, bilasizmi, nima bo'ladi? Burgutlarning tirnoqlari mo'rtlashib, kuchsizlashadi. Ovini oxirigacha ushlolmaydi — tushirib yuboradi. Tumshug'ining uchi ko'kragiga qarab o'sib boradi. Shuning uchun o'zi istaganidek taomlana olmaydi. Patlari qalinlashib, uchishiga xalaqit qiladi. Ya'ni haqiqiy ma'noda qariydi. Hozir sanaganlarimiz sodir bo'lganidan keyin ov qilishga yaramaydi, istaganidek ucha olmaydi, kuch-qudratidan

Biz hayotimizda o'rganib
qolgan odatlardan,
aralashib qolganimiz
muammolardan, adashib
etagini tutib qo'yganimiz
yomon odamlardan,
noto'g'ri ishlardan qutula
olmaymiz va umrimizning
oxirigacha o'shalarning
changalida gunohlarga
botib, boshimiz egilib,
tizzalarimiz bukilib o'tib
ketamiz. Bizdan hech
kim foyda ko'rmaydi. Biz
ham hech kimdan foyda
olmaymiz. Burgutga
o'xshab yangilana
olmaymiz — jur'atimiz
yetmaydi.

ayriladi. Ayrimlari shu tariqa qirq yoshdan keyin hayotni tark etadi.

Lekin ayrim burgutlar borki, hech kimning ko'zi tushmaydigan eng baland cho'qqilarga chiqadi-da, ko'ksiga qarab o'sgan tumshug'ini toshga urib sindiradi. O'rniga yangisi o'sib chiqadi. Yangi o'sib chiqqan tumshug'i bilan kuchsizlanib qolgan tirnoqlarini bitta-bitta qo'poradi. Qalinlashib ketgan patlarini bittalab yulib chiqadi. O'rniga yangisi chiqadi. Bu jarayon besh oycha davom etadi. Besh oydan keyin yangi hayotga qadam qo'yadi, yangi parvozi-ni o'sha cho'qqidan boshlaydi. Shundan keyin yana o'ttiz yil umr ko'radi. Bu bir ma'lumot. To'qima narsa emas. Bundan biz nima olamiz?

Biz hayotimizda o'rganib qolgan odatlardan, aralashib qolganimiz muammolardan, adashib etagini tutib qo'yganimiz yomon odamlardan, noto'g'ri ishlardan qutula olmaymiz va umrimizning oxirigacha o'shalarining changalida gunohlarga botib, boshimiz egilib, tizzalarimiz bukilib o'tib ketamiz. Bizdan hech kim foyda ko'rmaydi. Biz ham hech kimdan foyda olmaymiz. Burgutga o'xshab yangilana olmaymiz — jur'atimiz yetmaydi.

Biz ham yomon illatlarimizdan qutulishimiz, yangilanishimiz mumkin. Biz boshimizni yorib, qulog'imizni kesib, yangisini

chiqarmayapmiz-ku. Bu jismoniy og'riqqa burgut chidadi. Cho'qqining tepasida xo'rlangan, och-nahor burgut o'ziga ozor beryapti. Nima uchun? To'g'ri parvoz qilish uchun! Yangi g'ayrat, yangi kuch olish uchun! Burgutdan shuni o'rganishimiz kerak.

Oyoqyalang bolalar

Har narsaning bolasi shirin bo'ladi. Masalan, uch-to'rt yosh, besh-olti yosh bolalarni yomon ko'rish mumkinmas. Juda kamdan kam hol-larda yaramaslari ham uchrab qoladi. Lekin aksariyat bolalar toza, sof, gunohsiz bo'lishadi. Ular deyarli yolg'on ishlatishmaydi. Rostgo'y, samimiy bo'lishadi. Yaxshi ko'rsa ham, yomon ko'rsa ham chin dildan qilishadi buni. Yolg'on aralashmaydi. Nega? Chunki ular hali bu ha-yotning yolg'onlariga, firiblariga, tuhmatlariga, ig'volariga, xiyonatlariga duch kelishmagan.

Bu voqea Nil qirg'og'i qishlog'i degan joy-da sodir bo'lgan ekan. O'qituvchi sinfga kira-di va: "Bir mavzuda insho yozasiz, eng yaxshi insho yozganga mana bu poyabzalni sovg'a qilamiz", — deydi. Rag'bat tariqasida. Hamma o'quvchilar insho yozishadi. O'qituvchi uyiga borib, insholarni ko'rib chiqadi. Ertasi kuni: "Inshoni yomon yozgan o'quvchi yo'q. Hamma yaxshi yozibdi. Men tanlay olmadim. Shuning uchun ovozga qo'yamiz. Kim ko'proq ovoz olsa,

Ular qadriga
yetmayotgan narsalar
kimlar uchundir orzu
ekanini, oyoq kiyimga
erishish orzusida
yashayotgan bolalar
borligi haqida ham
bilishlari kerak.

poyabzalni o'shanga beramiz. Faqat hech kim o'ziga ovoz berolmaydi", — deydi.

O'shanda Umida ismli bir qiz poyabzalni yutib olgan ekan. Ayol uyiga borib voqeani turmush o'rtog'iga hayajonlanib aytib beradi. Turmush o'rtog'i: "Nega bunaqa hayajonlanasan? Buning nimasi ajablanarli?" — deb so'raganida o'qituvchi: "Gap shundaki, butun sinf o'sha qizning ismini yozgan. Chunki uning oyoq kiyimi abgor edi. Bolalar bir-birlari bilan maslahat qilishmagan, lekin hammasining fikri bir joydan chiqqan", — deydi...

Kattalar buni o'ylab, tushunib, fikr qilib, bir xulosaga kelishi uchun qancha vaqt ketadi? Lekin bolalarning ichki sofliigi, ichki tozaligi, bir-biriga yaxshilikni sog'inishi hayratlanarli. Bir filmni ko'rishni tavsiya qilgan bo'lardim. "Osmon bolalari" degan film. Rejissyori Muhsin Mahmalbah. Aka-singilda bitta oyoq kiyim bo'ladi. Akasi peshingacha o'qiydi. Peshindan keyin singlisi o'qishi kerak. Maktabga borishi kerak. Lekin oyoq kiyim bitta. Akasining darsi tugashi bilan 15 daqiqalik katta tanaffus paytida singlisi maktabga qarab chopadi, akasi esa uyga qarab chopadi. Yarim yo'lda ular oyoq kiyimini almashtirishadi. Aka rezinka shippakni kiyib uyga, singil esa oyoq kiyimni kiyib maktabga boradi. Har kuni.

Bir kuni marafon uyushtiriladi. Mukofotga oyoq kiyim qo'yiladi. Bola marafonda o'sha oyoq kiyimni yutib olish uchun nimalar qilmaydi...

Bizning yoshligimizda ham shunday edi. Kiyim, poyabzal masalalarida muammolar bor edi. Lekin bugun deyarli yo'q. Albatta, bugungi bolalarni xursand qilish ancha qiyin. Lekin eslatib qo'yish shart. Ular qadriga yetmayotgan narsalar kimlar uchundir orzu ekanini, bir narsaga erishish oson kechmasligini tushuntirish lozim. Ular oyoq kiyimga erishish orzusida yashayotgan bolalar borligi haqida ham bilishlari kerak. Chunki dimog'i ko'tarilib, osmonga qarab ulg'aysa, bir kun yerni ko'rmay, yiqilib tushishi mumkin.

Iymoningizni garovga qo'ymang

Hech aldanganmisiz? Bo'lgan-a? Hozir aytib bermoqchi bo'lganim hikoya Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"sida keladi.

Turkiylardan bo'lgan bir kishi Rumga boribdi. Bir karvonsaroyda to'xtabdi, u yerdagi rumliklar bilan gaplashib qolibdi. Ularga:

— Ey rumliklar, eshitishimcha, sizlar tomonda juda makkor, yolg'onchi, ayni paytda, usta bir o'g'ri bor ekan. Chevarchilik qilarkan. Uning dong'i biz tomonlarga ham yetib borgan. U meni aldolmasligini isbotlamoqchiman. Chunki shu paytgacha meni hech kim aldolmagan, — debdi.

— Biroz katta gapiryapsiz, hazrat. Yolg'on-da, aldovda, olg'irlikda unga yetadigani yo'q. Sezmay qolasiz. Albatta, molingizni o'g'irlab qo'yadi, — deyishibdi.

— O'g'irlay olmaydi.

Xullas, garov bog'lashibdi. U odam garovga otini qo'yibdi.

Rumliklar chevarning eshigini ko'rsatishibdi. Turk qimmatbaho matoni olib borib, eshikni taqillatibdi. Chevar eshikni ochibdi, xuddi ming yillik qadrdonini ko'rgandek ta'zim qilib, qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beribdi:

— Xush kelibsiz! Bizning yurtlarga qaysi shamol uchirdi? Istaysizmi, sizni Rum diyori-ning go'zal ayollari bilan tanishtiraman.

— Yo'q, yo'q, sen meni chalg'itma. Meni alday olmaysan.

— Nega unday deyapsiz? Sizga Rumda bo'ladigan ajoyib jang san'atlarini ko'rsataman.

— Yo'q.

— Baland binolarimiz bor.

— Yo'q, kerakmas.

Nima desa, rad etaveribdi. Oxiri:

— Sening o'g'ri ekaningni yaxshi bilaman. Meni aldayman dema. Aldolmaysan baribir. Yaxshisi, oldimda o'tir. Ko'zimni sendan bir lahza ham uzmayman. Menga mana shu matodan kiyim tikib berasan. Keyin ketaman. Meni chuv tushira olmaysan, — debdi.

— Astag'firulloh, hazratim. Sizni aldash niyatim yo'q. Sizga xizmat qilib ko'nglingizni xushlasam bo'ldi, — debdi tikuvchi.

Biz dunyo bilan
kurashga kirar
ekanmiz, iymonimizni
garovga qo'ygan
bo'lamiz. Bu o'yinda
yutqazsak, holimizga
voy.

Matoni stolning ustiga tashlabdi. Turkning o'lchovlarini olibdi va suhbatga berilibdi. Kulgili latifalar aytibdi. Mijoz qahqaha otib kulganida ko'zlari yumilib ketar, tikuvchi paytdan foydalanib qo'lidagi o'tkir qaychisi bilan matoning bir chekkasidan qirqib pastga tashlarkan.

Keyin u latifa aytishdan to'xtabdi. Shunda turk:

— Nega to'xtab qolding? Juda zo'r latifalar aytayotganding. Bunaqa latifalarni eshitmaganman, — debdi.

— Agar yana bitta latifa aytsam, siz to'n tiktirmoqchi bo'lgan matodan ichki kiyim ham chiqmay qoladi. Meni alday olmaysan degandingiz. Mendan bir qarich ham mato ololmaysan degandingiz. Mana, hammasini olib qo'ydim. Bir qarich qoldi, xolos. Siz bo'lsa sezmadizingiz, — debdi tikuvchi.

Bu qissadan juda ko'p hissa chiqarsa bo'ladi.

Unutmasligimiz kerakki, aldanib qolmayman degan odam — siz bilan biz. O'zimizga ishonamiz-da. Go'yo bizni aldab bo'lmaydi. Chevar esa bu dunyodir. O'rtaga qo'yilgan mato — bizning umrimiz. Kulgi — ichimizdagi hoyu havaslar. Chalg'itib qo'yadi bizni. Latifalar — dunyoning shahvati. Biz bu shahvatlarning ortidan quvib, hoyu havaslarga

berilib umrimizni boy berib qo'yganimizni doim ham sezavermaymiz. Lekin katta gapirishda davom etaveramiz. Otalarimizning bir gapi bor: "Nonni katta tishlagin-u, gapni katta gapirma". Chunki hali kimliging ma'lum emas. Nimalar bilan yuzlashishing ma'lum emas. Boshqalar haqida: "U unday, bu bunday", — deymiz. O'zimiz qandaymiz?

Hozir hikoyaning bir nuqtasiga qaytmoqchiman. Bu odam otini garovga qo'ygandi. Ot nima? Ot — bizning iymonimiz. Biz dunyo bilan kurashga kirar ekanmiz, iymonimizni garovga qo'ygan bo'lamiz. Bu o'yinda yutqazsak, holimizga voy. Otni garovga qo'yadigan o'yinlarga kirmaslik kerak.

Odamga o'xshagan eshaklar

Bittasi yozyapti: «Hayvonot bog'iga bordim, hamma hayvonlarni tomosha qildim. Keyin odamlarni ham tomosha qildim. Odamlarning ichida ham hayvonlarning xulqi bilan xulqlanganlari ko'p ekan. Masalan, kuchi o'ziga sig'maydigan sherlar bor, faqat bo'ynida yoli yo'q, xolos. Odamlarning ichida bahaybat jasadli fillar bor. Bo'riday yirtqichlar, tulkiday ayyorlar bor. Misol uchun, bir odamning ko'ziga qarasangiz, sherday ichiga sig'maydi. Ayrimlarni ko'rdim — filga o'xshaydi.

Fillar ko'p mutavoze bo'lib qolganidan odamlar ularning shiddatini unutib qo'yishadi. Boshqalarning chizgan chizig'idan chiqmagani uchun hurmatini yo'qotgan.

Ikkita ayiqni ko'rdim. Bittasi oq, ikkinchisi qora. Biri shimoliy qutb ayig'i, ikkinchisi o'rmonda yashaydigan ayiq. Boyagi oq ayiq muzliklardan ayrilgani uchun juda

xafa — rozi bo'lmayapti. Lekin bunisi unchalik farqiga bormayapti. Aslida, ikkovi ham vatanidan ayrilgan. Lekin bunisi temirlar bilan, odamlar bilan o'ynayapti. Qamoqdaligini unutgan. Bunisi rozi bo'lmagani uchun, eski sharoitlarini eslab siqilgani uchun burchakda o'tiribdi. Ayrim odamlar ham shunaqa: muammoni qabul qilmagani uchun eski muammolari bilan yuraveradi-yuraveradi, hayoti tatimaydi.

Maymunga o'xshagan odamlarni ko'rdim. Xuddi maymunlar kabi u yoqdan bu yoqqa bekordan bekor sakrab yuradigan bekorchi odamlar ko'p.

Birovning gapini qaytaradigan to'tiqushlarni ko'rdim. Dunyoga dong'i ketgan odamlarning gapini tushunsa-tushunmasa qaytarib yuradigan odamlarga o'xshar ekan.

Odamlarni ko'rdim — tili zaharli ilonga o'xshaydi. Ular ham gap bilan boshqalarning umrini zaharlaydi.

Hayvonlardagi xususiyatlar insonlarda ham bo'lar ekan. Masalan, toshbaqaga o'xshagan odamlarni ko'rdim. Ichiga berkinib olgan. Hech kimga qo'shilmaydi.

Tovusga o'xshagan odamlarni ko'rdim. O'ziga mahliyo bo'lib, boshqalarni nazar-pisand qilmaydi.

O'zi millatning molini
yeyapti, biror yordam
so'rab borsang,
qovoq-tumshug'i
osilib ketadigan
mansabdorlar bor-ku.
O'shalarga o'xshab
qolarkan bu eshaklar.

Bularning hammasi tushunarli. Hayvonot bog'i. Qafasning ichidagi eshaklarni ham ko'rdim. Semirib ketgan, chiroyli bo'lib ketgan. Yaxshi qarasa, eshak ham semirarkan. Eshak xizmat uchun-ku, aslida. Bu yerda ular rohatda o'tiribdi. Eshaklar odamlarga xizmat qilgan-ku, endi bo'lsa odamlar eshaklarga xizmat qilyapti. Odamlarning eshakka aylanganini ko'rgandim-u, lekin eshakning odamga aylanganini ko'rish g'alati bo'lar ekan-da.

Hayvonot bog'ida odamlarga xizmat qiladigan eshakning ko'zi haligi eshaklarga tushib hayron qoldi. Albatta, hayron qoladi. Chunki hayvonot bog'ida zebra bo'lishi mumkin, jirafa bo'lishi mumkin, sher bo'lishi mumkin, kiyik bo'lishi mumkin, lekin eshak bo'lishi g'alati. Hayron bo'lib ularga qarab bir hangragandi, ular buni tan olishmadi.

Arzimagan bir mansabga chiqib olib, atrofdagilarni bir tiyinga olmaydigan mansabdorlar bor-ku. Mansabga minib olib, hech narsani bilmasa ham, o'zini biladigandek tutadigan odamlar bor-ku. To'rga o'tirishga loyiq bo'lmasa-da, to'rga chopadigan odamlar bor-ku. O'zi millatning molini yeyapti, biror yordam so'rab borsang, qovoq-tumshug'i osilib ketadigan mansabdorlar bor-ku. O'shalarga o'x-

shab qolarkan bu eshaklar. Keyin boyagi eshak
“suf-e” deb ketdi. “Odamga o'xshamay o'l”, —
degandek...»

Qamoqdagi ayol qissasi

Bu voqea to'qsoninchi yillarda Misrning Hulton degan shahrida sodir bo'lgan. Hoshim degan sudya bor ekan. Ko'p yaxshiliklari bilan nom qozongan ekan. U qanday hukm chiqarmasin, odamlar rozi bo'lisharkan. Hech adolatsiz hukm chiqarmas ekan. Hatto shunday holatlar bo'lgan ekanki, odamlar qarzidor bo'lib qolishsa, o'zining hisobidan bo'lsa ham qarzlarini yopib, ozodlikka chiqarib yuborar ekan.

Sud zali. Ayblanuvchi sifatida ayol kishining ismi aytilibdi. O'sha paytlarda ayollarni qamab qo'yishmas ekan. Hammaning ko'ngli birdan xijil bo'libdi. Ayol pulni isrof qilganlikda, ya'ni birovdan pul olib, uni vaqtida qaytarib bermaganlikda ayblanayotgan ekan.

Sudya ayolga qarab, undan hol-ahvol so'rabdi. Ayol ellik yoshlar atrofida. Beva. Turmush o'rtog'i vafot etgan. Uch nafar qizi bor. Amal-taqal qilib kun kechirisharkan. Sudya aytibdi:

— Nega yetti ming junayhni to'lamayapsiz? Nega uni sarf qilib yubordingiz?

— Yo'q, yetti ming junayh emas. O'zi ming junayh edi. Xato bo'libdi. Men har oy oltmish junayhdan to'lab turishim kerak edi. Ahvolim tang bo'lib qolgani uchun to'lay olmay qolgandim. Shuning uchun ustimdan arz qilishgan. Aslida, yetti ming junayh emas, ming junayh edi.

Da'vogar o'zining qizini advokat qilib yollagan ekan. Sudya unga qarab:

— Javobgar ming junayh deyapti-ku. Nega siz yetti ming junayh deyapsiz? — deb so'rabdi.

— Yo'q, otam yetti ming junayh deb aytdi.

Sudya har ikki tarafni eshitganidan so'ng qaror qabul qilish uchun ichkariga kirib ketibdi. U yerda tinglovchilar ham bor ekan. Hukmni e'lon qilishdan oldin ichkariga kirishibdi. Sudya u yerdagilarga: "Men hammangizni marhamatli, qo'lidan kelgancha yaxshilik qiladigan, boshqalarga bekordan bekorga zulm qilmaydigan odamlar deb bilaman", — debdi. Ro'molchasi-ni olib, stolning ustiga qo'yibdi. Keyin yonidan pul chiqarib, sanabdi — besh yuz junayh ekan. Uni stoldagi ro'molchanning ustiga qo'yibdi-da, "Yonimda bori shu ekan. Ishonchim komilki, sizlarning ichingizda ham u ayolning qarzini to'lashga yordam beradigan, Alloh taolo to-

monidan berilgan xayrli ishga hissa qo'shish imkoniyatidan foydalanadiganlar, qo'li ochiqlar topiladi", — debdi.

Kimdir ming junayh, yana kimdir uch yuz junayh beribdi, xullas, qodir bo'lganicha hissa qo'shibdi. Yig'ilgan pul sakkiz ming junayh bo'libdi. Keyin hukm o'qish uchun sud zaliga qaytishibdi.

Sudya Hoshim: "Hammamiz birgalashib sakkiz ming junayh yig'dik. Sen bu pulni ol, yetti ming junayhni qarzingga to'la va uyingga bor", — debdi. Keyin advokatga qarab: "Siz ham yetti ming junayhni oling-da, uyingizga boring. Bu ayolni chiqarib yuboraylik. Ayol kishi bu yerda qolmasin. Yana uch nafar bolasi bor ekan. Ayol boshi bilan bunday mahkamalarda o'tirishi yaxshimas", — debdi.

Boyagi advokat: "Yo'q, yetti ming junayh emas ekan. Men dadam bilan gaplashdim. Besh yuz junayh ekan", — debdi.

Hoshim: "Demak, men boya birinchi qo'ygan besh yuz junayh ekan-da buning qarzi", — deb kulibdi. So'ng ayolga: "Bu pullarni sen uchun to'pladik. Olgin-da, yaxshiliklarga ishlatgin. Alloh hayotingga osonlik bersin, xayr bersin", — debdi.

Odamlar o'sha yerda olqishlar yog'dirishibdi. Boshqa zaldagilar ham chopib kelishibdi bu

Odamlar ustidan
hukm qiladigan
qatlam odamlarni
qiynashni emas,
ularning hayotini
yengillashtirishni
maqsad qilsa, ularni
adolatsizlik emas,
adolat bilan ro'baro'
qilsa, ko'pchilikning
hayoti yaxshi tomonga
o'zgarishi muqarrar.

yerda nima bo'lyapti ekan deb. Shunday qilib, yetti ming junayh qarzi bor deb sud zaliga olib kelingan ayol qo'lida yetti yarim ming junayh bilan uyiga qaytgan ekan.

Hoshimga o'xshagan odamlar hamma jamiyatlarda bor, albatta. Birining nomi chiqqan, boshqasini chiqmagan. Bu hamma sudyalar uchun bir o'rnak, bir ibrat. Jamiyatda halol, adolatli odamlar ko'paysa, xalqning turmushi farovonlashadi, yaxshilanadi. Odamlar ustidan hukm qiladigan qatlam odamlarni qiy-nashni emas, ularning hayotini yengillashtirishni maqsad qilsa, ularni adolatsizlik emas, adolat bilan ro'baro' qilsa, ko'pchilikning hayoti yaxshi tomonga o'zgarishi muqarrar. Esdan chiqarmaylik, birovga yaxshilik qilgan odam, avvalo, o'ziga yaxshilik qilgan bo'ladi.

Bir dinor muammosi yoxud unutilgan ne'matlar haqida mulohazalar

Podshohlarning taxtga o'tirgan holatini ko'z oldingizga keltiring. Eski kinolarda, spektakllarda faqat siqilib o'tirishadi. Shunaqa bir shoh bor ekan. Hech halovati yo'q ekan. Bir kuni yoniga vazirini chaqirib, shunday debdi:

— Vazir janoblari, bir savol bor. Darvozabonni kuzataman: ertalabdan kechgacha kayfiyati yaxshi bo'ladi. Kuladi, yonidagilar bilan hazillashadi. Hayotidan mamnun. Vaholanki, hech narsasi yo'q. Qo'lidagi nayzasi bilan qalqoni ham menga tegishli, aslida. Lekin og'zi qulog'ida. Endi mening saltanatimga qarang, uning cheki-chegarasi yo'q, mol-mulkim hisobsiz, haramdagi ayollar, bola-chaqa, noz-ne'matlar... Lekin menda soqchinikidek xotirjamlik yo'q. O'ylab buning sababini topa olmayapman.

— To‘qson to‘qqiz qoidasini ishlatib ko‘rsangiz, keyin bilasiz.

— To‘qson to‘qqiz degani nimasi?

— Bir hamyonga to‘qson to‘qqiz dirham soling-da, hamyonning ustiga “Yuz dirham” deb yozing. Tunda hamyonni o‘sha soqchining eshigi tagiga tashlab ketishsin. Keyin ko‘rasiz tomoshani.

Podshoh vazirning aytganini qilibdi. Bir hamyonga to‘qson to‘qqiz dirham solibdi. Hamyonning ustiga “Yuz dirham” deb yozibdi. Kechqurun odamlari o‘sha soqchining eshigi tagiga hamyonni qo‘yib, eshikni taqillatib ketishibdi. Ya’ni ehsonligini ma’lum qilishibdi.

Soqchi eshikni ochib qarasa, hamyon turganmish, ustiga: “Ehson. Yuz dirham”, — deb yozib qo‘yilganmish. Uyiga kirib, hamyonni ochibdi. Sanab ko‘rsa, to‘qson to‘qqiz dirham chiqibdi. Xotin, bola-chaqasini chaqiribdi. “Mana bu yerga «Yuz dirham» deb yozilgan. Ichini ochib sanasam, to‘qson to‘qqiz dirham ekan. Yuz dirham bo‘lishi kerak. Yo‘lda olib kelayotganda qayerdadir tushirib qo‘yishgan bo‘lsa kerak. Qidirib topinglar», — debdi. Rosa qidirishibdi, topa olishmabdi. Soqchi ularni urishibdi, so‘kibdi, baqiribdi, kayfiyati buzilib, uyqusi qochibdi. Ertasi kuni qovoqlari osilib,

Ko'rmaysizmi,
to'qson to'qqizga
shukr qilmay, birini
qidirib yuribdi.

Sizning ahvolingiz
ham xuddi shunaqa.

Bizga berilgan
to'qson to'qqiz
dirhamni ko'rmaymiz,
sezmaymiz-da, bittasi
uchun baxtsizlikka
mubtalo bo'lamiz,
halovatimizni
yo'qotamiz.

bir ahvolda saroyga kelibdi. Podshoh qarasa, soqchining holi tang. Vazirini chaqirib so'rabdi:

— Bunga nima bo'ldi?

— Ko'rmaysizmi, to'qson to'qqizga shukr qilmay, birini qidirib yuribdi. Sizning ahvolingiz ham xuddi shunaqa. Bizga berilgan to'qson to'qqiz dirhamni ko'rmaymiz, sezmaymiz-da, bittasi uchun baxtsizlikka muhtalo bo'lamiz, halovatimizni yo'qotamiz.

Hamмамiz ham shundaymiz. Ne'matlarni bilmaymiz, ko'rmaymiz. Bizga berilmagan narsalar uchun fig'onimiz falak bo'ladi, uyqumiz qochadi. Yonimizdagilarga zahrimizni sochamiz. Bizdan manfiy energiya burqsib turadi. Allohning bergan ne'matlariga shukr qilishni unutamiz. Podshoh ham shunday edi. O'ziga berilmagan narsalar uchun halovatini yo'qotgan edi. Soqchi ham shu holga tushdi. Unga to'qson to'qqiz dirham berildi, lekin bir dirham uchun dardi-dunyosi qorong'i bo'ldi. Qachonki bizni ranjitadigan biron voqea yuz bersa, mana shu to'qson to'qqiz qoidasini eslasak, hammasi joyiga tushadi. Bizga berilgan narsalar to'qson to'qqizta. To'qqiz yuz to'qson to'qqizta. To'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizta. To'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizta va hokazo. Shu bittani deb qolganini ko'rmaymiz. Juda ojiz bandamiz-da...

Aldanib qolmang!

Aldanib qolish deganda insonlar bizni chuv tushirishini yoki bizga firib berishini, o'zaro munosabatlarda yutqazishni tushunamiz.

Muso alayhissalom kunlardan bir kun bir chashmani kuzatib o'tirsa, bir askar suv ichgani kelibdi. Bo'ynida oltin kosa bor ekan. Shu suvga tegmasin deb oltin kosani qo'yib, suv ichibdi, chanqog'i qonganidan keyin kosani unutib yo'lda davom etibdi. Kosa chashmaning bo'yida qolibdi. Ozgina vaqt o'tganidan keyin bir bola chashmadan suv ichaman deb yugurib kelibdi. Qarasa, oltin kosa turibdi. Suvni qo'yib, kosani olib yo'lida davom etibdi. Oradan ozgina vaqt o'tib chashmaga bir nuroniy chol kelibdi. Suv ichayotsa, boyagi oltin kosani unutib qoldirgan askar yugurib kelibdi-da, "Oltin kosamni shu yerda yo'qotdim, topib berasan", — debdi. Nuroniy: "Bundan xabarim yo'q", — desa ham, ishonmabdi. Chol topib berolmaganidan keyin boyagi askar uni o'ldiribdi. Bu voqealarning hammasiga guvoh bo'lgan Muso alayhissalom:

“Yo Alloh, qani bu yerda adolat?” — debdi. Go‘yo isyon qilgandek bo‘libdi-da. Shunda Alloh azza va jalla aytibdiki: “Siz, albatta, bizning bu tadbirlarimizni bilish darajasida emassiz”. Ya’ni inson bu dunyodagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni va bu munosabatlar asosida yotgan Allohning tadbirlarini bilish darajasida aqlli emas ekan-da. Alloh aytibdi: “Bu askar oltin kosani olib qochgan bolaning otasining molini tortib olgandi. Chol esa bir paytlar askarning otasini nohaqdan ayblab o‘ldirgan edi. Biz shu bilan tarozini o‘rniga qo‘ydik”.

“Qani adolat? Shu ham adolatmi?” — deb isyonga ketganlarni Alloh tavbaga buyurgan ekan.

Biz bunday isyonlarni bir kunda necha marta qilamiz, hayotda yuz berayotgan voqealar haqida: “Yaxshi bo‘lmadi, to‘g‘ri bo‘lmadi, aslida, bunday bo‘lishi kerak edi. Bu haq, bu nohaq”, — deb fikr yuritamiz? Qancha odamlarni mana shu fe‘limiz bilan, qarashlarimiz bilan yomonotliq qildik? Hisobi yo‘q...

Yengiltaklik bilan qancha odamlarning nomiga dog‘ tushirgan bo‘lishimiz mumkin. Hayotidan ma‘noni o‘g‘irlagan bo‘lishimiz mumkin. Lekin o‘zimizni hamma narsani biladigandek tutamiz.

Nima uchunligini bilmay turib dunyoda bo'layotgan voqealar haqida og'iz ko'pirtirib gapirishimiz aldanishimiz bo'ladi. Bir kuni o'zimiz o'ylab topgan haqiqatlar sarobligini bilganimizda izza bo'lishimiz aniq.

Ayni mana shu mavzuda yana bir hikoya bor. Rumliklarni yahudiylar ustidan hukmron qilib qo'ygan podshoh va Yahyo alayhissalom o'rtasida bir suhbat bo'lib o'tgan.

Podshoh aytadi:

— Muso alayhissalom fir'avndan qochib o'z qavmi bilan Qizil dengizning yoniga kelib qolgan, orqasidan fir'avnning ulkan qo'shini quvib kelayotgan bir paytda o'rtada qoldi: old tomonda dengiz, orqa tomonda esa fir'avn qo'shidan iborat yana bir ulkan dengiz. Ana o'sha payt Muso alayhissalom Allohga iltijo qildi va Allohdan unga "Hassangni suvga ur" degan buyruq bo'ldi. Muso alayhissalom hassasini suvga urgan payt dengiz ikkiga bo'lindi va Muso alayhissalom qavmi bilan dengizdan o'tdi.

Savol quyidagicha: Allohning qudrati har narsaga yetardi. Dengizni ikkiga ayirgan Alloh Muso qavmini dengizni ikkiga ayirmasdan ham suvning ustidan yurg'izib o'tqazib yuborishi mumkin edi. Nima uchun dengizni ikkiga ayirdi?

Yahyo alayhissalom javob beradi:

Aldanish halokatga
olib boradi.

— Sen bir aldangan odamsan. Sen baribir buning hikmatini tushunmaysan. Lekin mendan soʻralgan har narsaga javob berishim va toʻgʻrisini aytishim shart. Agar Alloh Musoni va uning qavmini dengizning ustidan yurgʻizib oʻtqazganida edi, firʻavn askarlari hech qachon suvning ustidan ularni quvmasdi. Alloh suvni ikkiga ayirdi, yerni koʻrsatdi. Muso qavmini dengizning oʻrtasidan yurgʻizib narigi tomonga oʻtqazdi. Ammo tuproq koʻringani hamono firʻavn lashkarlari: “Musoning qavmi ortidan boramiz”, — dedi. Nega? Chunki insonlar yer ustida yurishadi. Yaʼni yer koʻringani zahoti firʻavn va uning lashkarlari uning ustidan yura boshlashdi va halok boʻlishdi.

Aldanish oʻldiradi. Bu dunyoda yashar ekanmiz, aldovlar ichida boʻlishimiz mumkin, oʻzgalar tomonidan aldanayotgan boʻlishimiz mumkin, soʻzimizda, xayollarimizda, amallarimizda oʻzimiz oʻzimizni aldayotgan boʻlishimiz mumkin, yolgʻonning ichida boʻlishimiz mumkin.

Yana bir bor taʼkidlaymiz: biz bu dunyoda boʻlayotgan voqealarni toʻlaligicha tushunib yetmaymiz. Sirlari bizga maʼlum emas. Agar ana shu sirlar maʼlum emasligini tan olmasdan, oʻzimizni nimanidir biladigan, nimanidir anglaydigan, nimagadir aqli yetadigan, qurbi

yetadigandek ko'rsatishni boshlasak, aldanimiz. Fir'avn nima qildi? "Men qudratliman, men ilohman", — demadimi? Uning bunday deyishiga sabab nima edi? Har narsani biladigandek tutish, o'zining har narsani bilishiga ishonish, hamma qudrat ungagina xosligiga o'zini va boshqalarni ishontirishga urinish emasmidi? U aldandi va aldanish uni halokatga olib bordi.

Biz ham ko'zimizni ochmasak, taslim bo'ladigan nuqtalarda taslim bo'lmasak, ana shu aldanganlar va aldanayotganlar safiga kirib qolishimiz mumkin. Yana bir bor qaytaramiz: aldanish halokatga olib boradi. Omon bo'ling.

Har bir odam biz
uchun imtihon ekanini
bilsak, unga insondek
muomala qilishni
boshlaymiz.

Mundarija

“Hamyon” qissasi yoxud Allohga havola qilingan ajr.....	3
Yurakdan yurakka.....	19
Do’stlar imtihondan o’ta olishmadi.....	25
Hislar tildan dilga ko’chgandagina amallarda namoyon bo’ladi.....	30
Hovlidagi daraxt hikoyasi.....	33
Metrodagi tajriba.....	37
Jasorat haqida.....	41
Diqqatli bo’ling.....	44
Barakali bir dirham.....	48
Jasorat, matonat, sadoqat.....	53
Burgutlardan o’gitlar.....	61
Oyoqyalang bolalar.....	65
Iymoningizni garovga qo’ymang.....	69
Odamga o’xshagan eshaklar.....	74
Qamoqdagi ayol qissasi.....	79
Bir dinor muammosi yoxud unutilgan ne’matlar haqida mulohazalar.....	84
Aldanib qolmang!.....	88

ISBN 978-9943-8176-6-1



Abdukarim Mirzayev

Oyoqyalang bolalar

(Hikoyalar to'plami)

Mas'ul muharrirlar: Otabek Tillayev,

Abdulla Sharopov

Dizayner va sahifalovchi: Said Ahmad

Ushbu asarga oid barcha huquqlar muallifga tegishlidir. Muallifning yozma ruxsatisiz uni bosma, elektron, audio, video yoki boshqa har qanday shaklda tarqatish O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan taqiqlanadi.

© Abdukarim Mirzayev, 2022

